

O'zbekiston Respublikasi Xalq
ta'limi vazirligi

Navoiy davlat pedagogika instituti

O'zbek filologiyasi fakulteti bitiruvchisi
Toshova Xurshidaning
Alisher Navoiyning avtobiografik g'azallari

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

F.f.n. S.Jumayeva

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-6
I BOB. Alisher Navoiy lirik merosining o'rganilishi.	
I.1.Alisher Navoiy lirik merosining XX asrgacha bo'lgan davrda o'rganilishi.....	7-18
I.2. Shoir lirik merosining XX asrda o'rganilishi.	19-28
II. Alisher Navoiyning avtobiografik g'azallariga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar .	
II.1. Navoiyning avtobiografik g'azallarida ijtimoiy motivlar	
II.2. Alisher Navoiyning shaxsiy hayoti bilan bog'langan avtobiografik g'azallar	
XULOSA	61-62
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	63

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Yozma adabiyotning o'ziga xos an'analari mavjud bo'lib, bu an'analar bevosita adabiyotshunoslikning ko'p sohalari bilan bog'liqdir. Mumtoz adabiyotning asrlar osha davom etib kelayotgan ana shunday an'alaridan biri ijodkorning xalq ma'naviy boyligini, diniy va axloqiy qarashlarini puxta egallab, undan ijodiy foydalanishida ko'rinadi. Bu holat o'tmish shoirlarimizning xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotda keng tarqalgan obrazlarga, ramz va timsollarga ma'lum bir g'oyaviy-estetik maqsad bilan murojaat etishlarida yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Shubhasiz, o'zbek adabiyoti tarixining har bir davriga oid shoirlar ijodiy merosini an'anaviylik, o'ziga xoslik va individuallik nuqtai nazaridan tadqiq etish lozim. Hozirgi davrda milliy va tarixiy-ma'naviy merosimizga e'tiborning ortganligi, o'zlikni anglash davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi bois muhim tadqiqotlarga ehtiyoj kuchlidir. Zero, o'zlikni anglash o'tmish qadriyatlarimiz va tarixni bilishdan boshlanadi.

Tariximiz hamda adabiyotimizni to'g'ri tushunish omillarni izlash qadriyatlarimizni tiklashga yordam beradi. Biz madaniyatimiz va tariximizda chuqur iz qoldirgan siymolarni qadrlasak, ijodini o'rgansak, kelgusi avlod uchun madaniy taraqqiyotga yo'l ochgan bo'lamiz. Chunki: *“Xalqimiz asrlar osha yashab kelgan an'analari, urf-odatlari, til va ruhi negizida qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan mahkam uyg'unlashgan holda kelajakka ishonch tuyg'usini odamlar qalbi va ongiga yetkazishi, ularni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalashi, halollikni, mardlikni, adolat tuyg'usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalash yo'lida xizmat qilmog'i lozim”*¹.

¹ Karimov I. Vatan – sajdagoh kabi muqaddasdir. Asarlar 3-jild. Toshkent, 1996. 283-bet.

O'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan, uni vorisiylikka tayangan holda yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'targan, madaniyatimiz, tariximizda chuqur iz qoldirgan ijodkorlardan biri, shubhasiz, Alisher Navoiydir. Navoiy lirikasiga an'anaviy obrazlar, ramz va timsollar ta'sir etganini o'rganish, ularni qiyosiy tadqiq etish – shoir ijodining yangi qirralarini yoritish, shoirning individual uslubi, tili va badiiy-estetik mahoratini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi shoirning avtobiografik g'azallarini o'rganish, ularni tahlil qilish va shoir hayoti bilan bog'liq jihatlarini yoritishga oid tahlillarga bag'ishlangan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Navoiy lirikasini o'rganish shoir yashagan davridayoq boshlangan. Bir necha yillar davomida shoirning lirik va epik merosi tadqiq va tahlil etib kelingan. Bu ishlar, ayniqsa, XX asrda ancha rivojlantirilgan. Ammo mustaqillik qo'lga kiritilgach, shoir ijodini tom ma'noda puxta tadqiq etish ishlari jadallashdi. Ayniqsa, shoir ijodi, xususan, lirikasida qo'llanilgan ramz va timsollar, rang va raqam ramzlari, an'anaviy obrazlar, turli tushunchalarni anglatuvchi so'zlar kabi masalalar adabiyotshunoslar hamda tilshunos olimlarimiz tomonidan puxta o'rganilmoqda, tadqiq va tahlil qilinmoqda¹.

Mavjud tadqiqotlarga tayangan holda “Alisher Navoiyning avtobiografik g'azallari” mavzusida bitiruv malakaviy ishi tayyorlashga harakat qildik. Shuningdek, mavzuni yoritishda Navoiyning ruboiy, qit'a singari kichik janrdagi asarlari, “Xamsa” asarlarini bo'yicha yaratilgan tadqiqotlardan ham foydalandik.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi Alisher Navoiyning avtobiografik g'azallari, ularda

¹ Qarang: Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Toshkent, 2008; Jumayeva S. O'zbek mumtoz she'riyatida raqam ramzlari va ularning ma'no talqini. Fil.fanlari. nomz.disser. avtoref. Toshkent, 2006; O'sha muallif. Vaqt nafasdir, dam bu damdir // O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2008. 1-son; O'tanova S. Alisher Navoiy g'azaliyotida rang simvolikasi. Fil.fanlari. nomz.disser. avtoref. Toshkent, 2007.

ilgari surilgan qarashlar, g'oyalar, obrazlar tizimini o'rganishdan ibroatdir. Mazkur maqsadga erishishda shoir ijodining g'oyaviy-estetik taraqqiyoti va takomilida muhim o'rin tutgan avtobiografik g'azallarining o'rganilish masalasini diqqat markazida tutib, quyidagi masalalarni hal qilishga urindik:

- Navoiyning avtobiografik g'azallarini tadqiq etish;
- Navoiyning avtobiografik g'azallarini tahlil qilish;
- avtobiografik g'azallardagi navoiyshunos olimlar diqqatini o'ziga tortgan jihatlarni tasnif qilish;
- navoiyshunoslikda qo'lga kiritilgan yutuqlar asosida Navoiyning avtobiografik g'azallari o'rganilishini ilmiy mulohazalar asosida teran tahlil qilish;
- shoirning avtobiografik g'azallarini mavzular doirasiga ko'ra o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishining manbalari. Ishga Navoiy lirikasi o'rganilgan va tadqiq qilingan ilmiy tadqiqotlar asosiy ob'ekt qilib olindi. Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda XX asrda va bugungi kunda Alisher Navoiy ijodi bo'yicha yaratilgan tadqiqotlar, nashr etilgan kitoblar asosiy manba vazifasini bajardi.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi va ilmiy metodi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy istiqlol mafkurasi va adabiy-madaniy meros hamda ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga oid asarlari tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi. Shuningdek, ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, hozirgi adabiyotshunoslik erishgan ilmiy-nazariy yutuqlar va yangicha qarashlarga tayandik. Tadqiqotda qo'yilgan masalalarni yoritishda A.Abduq'afurov, A.Hayitmetov, I.Haqqulov, Yo. Is'hoqov singari buyuk adabiyotshunoslarning fikr va xulosalariga tayandik.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv malakaviy ishida Alisher Navoiyning avtobiografik g'azallari o'rganildi

va tadqiq etildi. Alisher Navoiyning avtobiografik g'azallarining mavzular doirasiga ko'ra, obrazlar olamiga ko'ra teran tahlili mumtoz adabiyotni o'rganishning nozik jihatlarini anglash, his qilish imkonini beradi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi Kirish, uch faslni o'z ichiga olgan ikki bob, Xulosa va Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi bet.

I BOB. Alisher Navoiy lirik merosining o'tmishda o'rganilishi

I.1. Alisher Navoiy lirik merosining XX asrgacha bo'lgan davrdan o'rganilishi

Turkiy adabiyotning yirik vakili, turkiy xalqlarning eng buyuk shoiri Alisher Navoiy “Xito (y) dan to Xuroson” gacha bo'lgan turkiy qavmlarni bir adabiy til bayrog'i ostida birlashtirgan mutafakkirdir. Alisher Navoiy yirik so'z san'atkori sifatida turkiy badiiy ijodni ham ma'no, ham shakl jihatidan jahoniy mavqega ko'tardi. Shuning uchun ham asrlar o'tsada, uning adabiy merosiga bo'lgan ma'naviy ehtiyoj oshib bormoqda. Bu hol ulug' shoirning “Muhokamat ul-lug'atayn”da o'z ijodidan faxrlanib bildirgan quyidagi bashoratomuz fikrlarining nechog'li to'g'ri ekanligini yana bir dalilidir: “Umidim uldur va xayoling'a andoq kelurkim, so'zim martabasi avjdin quyi inmag'ay va bu tartibim kavkabasi a'lo darajadin o'zga yerni beganmagay”.

Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish shoir hayotligidayoq boshlangan edi. Bu xayrli ishni birinchi bo'lib Abdurahmon Jomiy boshlab bergan. Biroq Navoiyning boy adabiy merosini o'rganishga hamma davr o'z qiziqishlari, imkoniyatidan kelib chiqib yondashgan. Masalan, XV asr va XVI asr boshlarida Navoiy tarjimayi holini yaratishga, asarlarini qo'lyozma holida ko'chirish va ko'paytirishga ko'proq ahamiyat berilgan bo'lsa, keyinchalik uning asarlariga maxsus lug'atlar tuzish birinchi o'ringa chiqqan boshlagan. Bunga To'le' Imoniyning “Badoye' ul-lug'at”, noma'lum muallifning “Abushqa”, Mirzo Mehdixonning “Sangloh” kabi lug'atlari yaqqol misol bo'la oladi. Navoiy ijodini, asarlarini o'rganish XX asrda an'anaviy navoiyshunoslikka nisbatan boshqacha yo'nalish va mazmun kasb etdi. Navoiy ijodi ko'proq G'arb adabiyotshunosligi andozalari bo'yicha o'rganila boshlandi. Xususan, Navoiyning yubileylari munosabati bilan ko'pgina yangi tadqiqotlar yuzaga

keldi. Bir qancha ilmiy maqolalar yaratildi, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yoqlandi.

Navoiyning 560 yillik yubileyi arafasida taniqli adabiyotshunos olim Abduqodir Hayitmetov navoiyshunoslar oldiga Navoiy ijodini o'rganish va tadqiq etishning bundan keyingi rivojlanishini ta'minlash maqsadida o'n ikki qismdan iborat bo'lgan metodolik asoslarini qo'yadi va shu asosda izlanishlar olib borishga undaydi.

Rahim Vohidov "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" kitobida shoir ijodi va hayoti bo'yicha tadqiqot olib borayotgan olimlar to'rtta muhim manbaga tayanib izlanish olib borayotganliklarini ta'kidlaydi:

1. Ulug' shoirning o'z asarlari(asosan nasriy asarlari)
- 2.Navoiy zamondoshlarining asarlari ("Navoiyning qalb daftari").
- 3.XVI-XIX asrlarda yaratilgan tazkira, tarixiy va badiiy-ilmiy asarlar.
- 4.Xalq og'zaki ijodi ("El desa Navoiyni").

1. Ulug' shoirning o'z asarlari. Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlarida uning shaxsi, ijodkorligi, ijtimoiy-irfoniy faoliyati haqida ma'lumot beriladi. Bu jihatdan ayniqsa, uning "Xazoyin ul-maoniy", "Xamsa", "Majolis un-nafois", "Mahbub ul-qulub", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Vaqfiya", "Xamsat ul-mutahayyirin", "Nasoyim ul-muhabbat", "Tarixi muluki ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Mezon ul-avzon", "Munojot", "Arba'in hadis", "Siroj ul-muslimin" singari asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur asarlarda shoirning shaxsiy hayoti, u yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, madaniy-ma'rifiy muhit, ba'zi asarlarining yozilish tarixi va sabablari, adibning el-yurt tinchligi, obodonchiligi yo'lida olib borgan keng qamrovli faoliyati, Xuroson davlatining muhrdori, vaziri a'zami sifatida qilgan savobli ishlari, ustozu shogirdlari bilan munosabati singari muhim masalalar xususida bahs yuritiladi. Ulug' shoirning o'z asarlari uning hayoti va faoliyatini o'rganishda eng ishonchli manbadir.

2. Alisher Navoiy zamondoshlarining asarlari. Mazkur bandni yana bo'laklarga (ulug' shoirning katta, tengdosh va kichik zamondoshlari) bo'lish ham mumkin. Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", "Haft avrang", "Yusuf va Zulayho", "Devoni Komil", Mirxondning "Ravzat us-safo", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", G'iyosiddin Xondamirning "Makorim ul-axloq", "Habib us-siyar", "Xulosat ul-axbor", Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye'", Z.M. Boburning "Boburnoma" kabi asarlarida Alisher Navoiyning hayoti va faoliyatiga oid muhim ma'lumotlar keltirilgan, shaxsi va adabiy merosiga ta'rifu talqinlar berilgan, qimmatli tayanch manbalardir. XV asr tarixiy voqeyligi, unda ulug' amir Alisher Navoiyning tutgan o'rni va shoirning hayoti, faoliyati bilan yaqindan tanishishda mazkur manbalarning ahamiyati nihoyatda baland. Shuning uchun taniqli adabiyotshunos Izzat Sulton Alisher Navoiy hayoti va ijodni o'rganishda ilk manba sanalgan ulug' shoirning o'z badiiy-ilmiy yaratmalari va zamondoshlari asarlarida keltirilgan ma'lumotlarga tayanib, "Navoiyning qalb daftari"¹ nomli ilmiy-adabiy tadqiqotini yaratdi. Bu asar mazkur mavzu va umuman, navoiyshunoslik ilmi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

3. XVI-XIX asrlarda yaratilgan tazkira, tarixiy va badiiy-ilmiy asarlar. Alisher Navoiy dahosi va uning takrorlanmas badiiy, ilmiy ijodi XVI-XIX asrlarda yashab ijod etgan shoirlar, tarixchilar va adabiyot ixlosmandlarining doimo diqqat markazidan o'rin olib keldi. Lutf Alibek Ozarning "Otashkadai Ozariy", Som Mirzo Safaviyning "Tuhfai Somiy", Rizoqulixon Hidoyatning "Majmua' ul-fusaho", Faxriy Heraviyning "Latoyifnoma", Mirzo Haydar Do'g'latning "Tarixi Rashidiy", Abdulmo'minxonning "Tom ut-tavorix" kabi mumtoz manbalarida Alisher Navoiy zamondoshlari asarlarida kuzatilgani singari shoir ijodiga xolisona baho beriladi, hayoti va faoliyatiga doir qiziqarli lavhalar keltiriladi. Biroq yuqorida ro'yxati keltirilgan asarlar ma'lumotiga munosabatda ehtiyot bo'lishimiz lozim. Chunki o'sha tazkira, tarixiy kitoblar

¹ Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. Toshkent, 1969.

mualliflarining Alisher Navoiy haqidagi tasavvurlari birinchi va ikkinchi manbalar ma'lumotlari orqali bilvosita shakllangan. Shu ma'noda ularning qaydlarida noaniqliklar kuzatilishi mumkin. Xullas, uchinchi manbalarning ma'lumotlari Alisher Navoiy ko'lamdor faoliyatini oydinlashtirish uchun turtki bersada, jiddiy ilmiy xulosalarga kelish uchun asos bo'lishi qiyindir.

4. Xalq og'zaki badiiy ijodi. O'zbek, tojik va turkman xalq og'zaki ijodida Alisher Navoiyga bag'ishlangan juda ko'p rivoyatlar uchraydi. Ularda xalq sevgan va ardoqlagan shoirning o'ziga xos xalqona badiiy obrazi yaratilgan. Mazkur rivoyatlarda tarixiy haqiqat aynan keltirilmaydi. Ularda Hazrat Alisher Navoiy obrazi donishmand, hozirjavob, mulohazakor, xalqparvar, mazlumlar himoyachisi, iste'dodli olim, mutafakkir shoir, olijanob shaxs sifatida gavdalanadi. O'zbek xalq og'zaki ijodida "Navoiy va yigit", "Navoiy va qirq vazir", "Navoiy va Guli"; turkman folklorida "Mirali va Sulton Suyun" turkumidagi rivoyatlar mavjud bo'lib, bular xalqning ulug' shoiriga bo'lgan samimiy munosabatining mahsulidir. Ushbu rivoyatlarni folklorshunos olim M.Jo'rayev to'plab nashr ettirgan¹. Alisher Navoiyning lirik merosi o'zbek lirikasining milliy hamda qardosh adabiyotlarning eng ilg'or an'alarini o'zida mujassam etgan yangi va yuqori bosqichi hisoblanadi. Navoiy lirikasining tub mohiyati – falsafiy, ijtimoiy va etnik qarashlarning yuksak poetik shakldagi ifodasi bo'lganligi bilan xarakterlanadi.

Biz, birinchi marta, Navoiy ijodiyotida lirikaning davrning yetakchi falsafiy, ijtimoiy oqimlari bilan bevosita aloqasini ko'ramiz.

Lirikaning ijtimoiy muhit bilan munosabati, asosan, chuqur norozolikka asoslangan oppozitsiya, ilg'or bir mutafakkir – ijodkor oppozitsiyasi sifatida ko'rinadi. Bu oppozitsiya uni rad etish va keskin tanqid tarzida namoyon bo'ladi. Navoiyning lirik qahromoni – boy ma'naviy-axloqiy sifatlar sohibi bo'lgan murakkab bir tip. Uning ruhiy olami, xarakteriga mos muhim qirralar

¹ El desa Navoiyni. Toshkent, 1991.

hayotga va o'z zamonasiga bo'lgan aktiv munosabati orqali ko'z oldimizda yorqin namoyon bo'ladi.

U – hayot tomirlaridagi ichki harakatini, davr yuragidagi murakkab ritmni chuqur his eta oladigan zukko olim va siyosiy arbob. Ayni zamonda ishqning quvonch va alamlari, bekaslik va musofirlikning og'ir ruhiy iztiroblaridan ham mahrum emas. Binobarin, bir o'rinda u ana shu insoniy tuyg'ular girdobida turib ohu nola qilsa, ikkinchi bir o'rinda osmonu falakni larzaga soladigan darajada na'ra tortadi. Bir qarasangiz, u olam va odam naslidan hafsalasi pir bo'lib, ulardan etak siltaydi; bir qarasangiz, din va hokimiyat arboblarining chirkin basharasiga ta'na toshlarini urib, podshohning giribonidan mahkam tutgan holda, uning yuziga bor haqiqatni keskin bir shaklda to'kib soladi.

Shoir shaxsida yoshlik davridayoq ko'rina boshlagan mavjud muhitga tanqidiy munosabatda bo'lish hissi davrlar o'tishi bilan, uning hayotiy tajribasi bilan bo'g'liq holda, tobora kuchayib bordi va nihoyat u xilma-xil shakldagi chuqur muhokamalardan keyin “olamni odam manfaatlariga mos qilib va u bilan birga odamni ham qaytadan yaratish kerak” degan buyuk xulasaga keladi.

Shuning uchun ham mazmunan chuqur, g'oyaviy pafos jihatdan yuksak va badiiy barkamol bu she'riy durdonalar shoir hayotligi chog'idayoq milliy va geografik chegaralarni yorib o'tib, Xuroson, Movarounnahr, Kichik Osiyo va Sharqiy Turkistonda keng shuhrat qozondi.

Navoiy lirik she'rlarining xalq orasida naqadar tez yoyilganligini shunday ham bilish mumkinki, shoir 24-25 yoshlik chog'larida uning bir qancha she'rlari she'riyat muxlislari tomonidan to'planib, maxsus devon holiga keltirilgan. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, Navoiy lirikasi haqidagi dastlabki fikrlar uning hayotlik paytida bayon qilingan va ularda shoir lirik merosining mohiyati ixcham, ammo mukammal baholangan.

Navoiyning “Orazin yopqach” deb boshlanuvchi mashhur bayti haqida Lutfiy bildirgan fikrni, umuman, shoir lirikasi haqida bayon qilingan dastlabki baho deb aytish mumkin.

Abdurahmon Jomiy “Bahoriston” asarida Alisherning tengsiz talanti, uning har ikki tilda she’r yozishi, biroq mayli turkiy yozishga ko’proq ekanligini ta’kidlagach, “ba on zabon besh az vay va beh az vay kase she’r naguftaast va gavhari nazm nasufta” (u tilda (ya’ni turkiy tilda- T. X.) hech kim undan ko’p va undan yaxshiroq she’r ayta olmagan va nazm durlarini tesha olmagan) deb yozadi.

Ana shu bir jumlada Navoiy adabiy merosining eng muhim jihatlari (hajm jihatidan ham, mazmun va badiiy shakl nuqtai nazaridan ham) nihoyatda ustalik bilan ko’rsatib berilgan. Shu narsa diqqatga sazovorki, Navoiyning yosh zamondoshlaridan bo’lmish Zahiriddin Muhammad Boburning Navoiy she’riyati haqida “Boburnoma” da bayon qilgan fikri ham Abdurahmon Jomiy fikri bilan aynan mos keladi.

Hakimshoh Qazvinii ham “Majolisun-nafois” tarjimasining ilova qismida Alisher Navoiyning ham turkiy, ham forsiy tilda yuksak mahorat bilan she’rlar yozganligini bayon etib, o’z fikrini quyidagicha hisoblaydi: “Hech kim turkiy she’rni undan yaxshiroq ayta olmagan va nazm durlarini undan yaxshiroq socha olmagan”.

Umuman, XVI-XIX asrlarda Hindiston, Eron, Afg’oniston, Turkiya va O’rta Osiyoda tuzilgan va Alisher Navoiy nomi kiritilgan tazkiralarda Navoiy ijodi, jumladan, uning lirikasi haqida bayon qilingan fikrlarni shunday umumlashtirish mumkin: Alisher Navoiy har ikki tilda mahorat bilan she’rlar bitgan. Biroq uning ta’bi turkiy she’rga ko’proq moyil bo’lgan. Turkiy tilda hech bir kishi undan ko’proq va undan ko’ra yaxshiroq she’r yaratgan emas.

Alisher Navoiy turkiy adabiyotni jahoniy mavqeyga ko’targan ulug’ so’z san’atkori sifatida mumtoz adabiyotimizning keyingi tarqqiyot bosqichlarida yashab ijod etgan shoirlarning ma’naviy ustoz bo’lib qoldi. Nafaqat turkiy tilda ijod qilgan so’z san’atkorlari, balki Sharq adabiyotining juda ko’p mumtoz adabiyot namoyandalari ham bu ulug’ shoirning boy adabiy merosidan foydalandilar, ilhomlandilar, o’sha turki tufayli o’zlarining yangi-yangi

asarlari ijod qildilar. XX asrga qadar bo'lgan davrda shoirning hayoti va ijodini o'rganish quyidagi shakllarda amalga oshirildi:

- Shoir asarlarini kitobat qilish;
- Sermahsul ma'naviy merosiga oid lug'atlar tuzish;
- tazkira, tarixiy hamda ilmiy-badiiy asarlarda shoir shaxsi, faoliyati va badiiy yaratmalariga munosabat bildirish;
- she'rlariga javobiya va muxammaslar bitish;
- dostonlarining nasriy bayonini yaratish;
- ayrim badiiy-ilmiy merosi namunalari tarjima qilish kabi.

Alisher Navoiyning rangin she'riyatidan namunalarni kitobat qilish hali uning dastlabki devoni tartib berilmasdan ilgari boshlangan edi. Bu haqda ulug' shoirning ilk rasmiy devoni "Badoe' ul-bidoya"ning debochasida quyidagi fikrlar qayd etilgan: "...ammo xalq orasida ming bayt, ikki ming bayt ortiqroq o'ksukroqkim o'zlari jam' qilib erdilar, bag'oyat mashhur bo'lib erdi". Darhaqiqat, Xurosonning mashhur husnixat egasi, Navoiy ta'biri bilan aytganda, "hattotlar qiblagohi" Sulton Ali Mashhadiy va boshqa chiroyli yozuv egalari tomonidan turli davrlarda shoir asarlari kitobat qilindi. "Masalaning bu tomoni ulug' shoir asarlari bilan keng xalq ommasi tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi, deyish asosini bera olmaydi, albatta"¹. XIX asrning 70-yillarida Turkistonda bosmaxonalarning paydo bo'lishi bilan bu boradagi kemptikliklar bir oz bo'lsa-da, bartaraf qilindi. Qisqa muddatda Alisher Navoiyning "Xamsa", "Chor devon", "Vaqfiya" va boshqa asarlari bir necha bor nashr etildi.

Ulug' shoir asarlarida ilgari surilgan tayanch g'oyalarni teran anglashga bo'lgan intilish maxsus lug'atlar tuzishga asos bo'ldi. "Badoe' ul-lug'at" bu boradagi dastlabki izlanishlar samarasi bo'lib, mazkur asar Alisher Navoiy hayotining so'nggi yillari yoki shoir vafotidan bir oz keyin vujudga kelganligi taxmin qilinadi. Keyinchalik "Lug'ati Navoiy" shoir ixlosmandlariga armug'on etildi. 1560-yilda Aloyi binni Muhibning "Al-lug'atun Navoiyyat val istishhodat

¹ Vohidov R.; Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent, 2006. 200-bet.

ul-chig'atoyiyat" ("Navoiy lug'ati va chig'atoy tili dalillari") nomli go'zal so'znoma – lug'ati tartib berildi. Keyingi asrlarda ham bunday lug'atlarga bo'lgan ma'naviy ehtiyojning sezilarli darajada mavjudligi kuzatiladi. XVIII asrda Mirzo Madhiyxon "Mabon ul-lug'at" ("Lug'at poydevori") nomli lug'at tartib bergan bo'lsa, XIX asrda Fat'ali Kojariy "Lug'oti atrokiya" ("Turklar lug'ati") nomli asari bilan bunday izlanishlarni davom ettirdi. Mazkur lug'atlar uchun Navoiy asarlari so'zlik vazifasini bajarib, ularning aksariyati fors-tojik tilida yaratilgan edi. Xorazmlik olim va adib Muhammad Xoksor esa 1798-yilda o'zbek tilida tuzgan "Muntahab ul-lug'at" ("Tanlangan lug'atlar")ida Alisher Navoiy asarlari matnidan olingan parchalarga keng o'rin bergan. XIX asrda bunday ijodiy ishlarni Shayx Sulaymon Afandiy Buxoriy o'zining "Lug'oti chig'atoyi va turki islomiy" sida sezilarli darajada rivojlantirdi.

O'zbek adabiyotining XV asrdan keyingi davrlarda yashab ijod etgan taniqli namoyandalari ulug' mutafakkir Alisher Navoiyni o'zlariga ma'naviy ustoz deb bildilar. Bu buyuk sohir qalam sohibining katta-yu kichik asarlariga naziralar bitish, javobiya aytish, g'azallariga muxammaslar bog'lash nafaqat o'zbek shoirlari, balki qardosh xalqlarning mashhur so'z san'atkorlari orasida ham ajoyib an'anaga aylandi. Namuna sifatida taniqli o'zbek shoiri Shermuhammad Munis (1778-1829)ning bir she'rida Alisher Navoiyni o'ziga pir (ustoz) deb bilgani va o'z ismining ma'no jihatdan ulug' Alisherga uyg'unligini iftixor bilan qayd qilganligini keltirish kifoyadir:

So'z ichra Navoiyki, jahongir dudur,

Munisg'a maoniy yo'lida pir durur.

Yo'q g'ayriyat andin o'zgakim ayturlar,

Bu Shermuhammad, ul Alisher durur.

Shermuhammad Munis "Voliyi mulki tariqat gar Nizomiydur mango" satri bilan boshlanuvchi g'azalida Sharq mumtoz adabiyotining yirik darg'alaridan adabiy ta'sirlanganini e'tirof etar ekan, yana Hazrat Navoiy shaxsiga yuksak baho beradi. Munis Alisher Navoiy ruhini o'z homiysi deb

biladi. Shu bois ham hosid (hasadchi, shoir yutuqlarini ko'rolmaydigan)larning xatti-harakatlaridan g'am chekmasligini ta'kidlaydi:

Qilsa hosid daxli bejo, so'z aro yo'qtur g'amim,

Kim bu ma'nida Navoiy ruhi homiydur mango.

Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining boshqa tillarga tarjima qilinishi hamda ularning yangi badiiy asarlarning ijod qilinishida asos bo'lishi ulug' shoir ma'naviy merosining Sharq adabiyoti ravnaqi uchun muhim hissa bo'lib qo'shilganligidan dalolat beradi. XV asrdayoq buyuk mutafakkirning adabiyotshunoslik ilmi uchun muhim ahamiyatga molik bo'lgan tazkirasi "Majolis un-nafois" bir necha bor fors-tojik tiliga tarjima qilindi. Turk shoiri Lomiy "Xamsa" tarkibidagi "Farhod va Shirin" dostonini usmonli turk tiliga erkin ijodiy tarjima qildi. Adabiyotshunos Agoh Sirri Levend mazkur asarni 1965-yilda Turkiyada nashr ettirdi. Alisher Navoiy asarlarini usmonli turk tiliga o'g'irish yo'lidagi ijodiy izlanishlar keyingi davrlarda ham davom ettirildi. Adibning "tarixi muluki Ajam" asarining Fanoiy tomonidan turk tilga amalga oshirilgan tarjimasi 1782-yilda "Tarixi Fanoiy" nomi bilan Venada chop etildi. Shuningdek, XIX asrning boshlarida ulug' adibning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari ham turk va tatar tillariga tarjima qilindi.

Amir Nizomiddin Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosi G'arb adib va adabiyotshunoslarini ham befarq qoldirgan emas. Jumladan, XVII asrda yashagan gruzin shoiri Sitsishvili "Baramguriani" ya'ni "Bahrom G'o'r" dostonini yozishda Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" masnaviysidagi Bahrom va Dilorom hikoyatidan ilhomlangan. XVI asrda Tabrizda istiqomat qilgan arman yozuvchisi Xristafor "Sarandib shohi uch yosh o'g'lonining ziyorati" asarini Xusrav Dehlaviyning "Hasht behisht" va Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonlari hikoyatlari asosida yaratadi. Bu asar 1557-yilda Venetsiyada italyan tiliga tarjima qilinib, nashr etilgandan so'ng bir qator Ovrupa tillariga ham o'g'iriladi. Biroq ilm ahliga Xristafor asarining ikkinchi qismi bo'lishiga qaramay, Sarandib shohi va shahzodalari haqidagi voqealar tizmasi G'arbda keng shuhrat qozondi va Ovrupo adabiyotida shu mavzuda juda ko'p asarlar

yo'zildi. Hatto mazkur syujet Volterning "Zadige" hamda Mark Tvenning "Tom Soyer chet elda" kitobidan ham o'rin olgan. XVIII asr ingliz yozuvchisi Xoras Uolpol "Sarandiblik uch shahzoda" hikoyasini yo'zgan.

Ovrupalik sharqshunoslarning Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish borasidagi qizg'in ilmiy faoliyati XIX asrdan boshlandi. Fransuz sharqshunosi Kartmer 1841-yilda nashr ettirgan Sharq adabiyotiga doir majmuasida Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" va "Tarixi muluki Ajam" asarlaridan parchalar kiritdi. Bunday ijodiy izlanishlar rus olim I.N. Beryozinning "Turk xrestomatiyasi" kitobida ham amalga oshirilgan.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqidagi dastlabki yaxlit ma'lumotlar M.Nikitskiyning "Amir Nizomiddin Alisher, uning davlat va adabiyot sohasidagi ahamiyati" mavzuidagi magistrlik dissertatsiyasida uchraydi. Muallif Alisher Navoiyning o'z asarlari, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy va Som Mirzo Safaviy ma'lumotlariga tayanib G'arb sharqshunosligida birinchi bo'lib Alisher Navoiyning hayoti va faoliyati xususida katta ilmiy tadqiqot yaratdi. M.Nikitskiy ulug' shoirning siyosiy faoliyati, madaniyat sohasidagi ishlari hamda turkiy til taraqqiyotiga qo'shgan munosib hissasini yuqori baholaydi. Biroq Sharq adabiyotining o'ziga xos an'anaviylik hamda shartlilik xususiyatlarini to'la anglab yetmagan M.Nikitskiy, uning o'tmishdosh, zamondosh va izdoshlari buyuk mutafakkir ma'naviy merosiga baho berishda jiddiy xatolarga yo'l qo'yishdi. Ular Alisher Navoiyni fors-tojik adabiyotining taqlidchisi va tarjimoni tarzida baholashdi. SHuningdek, 1861-yilda Istambuldagi "Osiyo" jurnalida maqola e'lon qilgan Turkiyadagi Fransiya elchixonasining tarjimoni M.Belen ham o'sha ilmiy asosi puch fikrlarni takrorladi. Masalaga ana o'shanday bir tomonlama qarash Fransuz sharqshunosi Buva, ingliz sharqshunosi E.Braun, rus sharqshunosi akademik V.V. Bartold tadqiqotlarida ham kuzatiladi. Albatta, masalaning bunday tus olishi o'z izohlariga ega. Birinchidan, Alisher Navoiy adabiy merosini o'rganish boshlang'ich pog'onada edi. Ulug' mutafakkirning barcha asarlari to'la hoida nafaqat Ovro'pa, balki mashriqdagi muhiblariga ham yetarli darajada ma'lum

emas edi. Ikkinchidan, an'anaviy "Xamsa"lar tarkibidagi dostonlar nomi va ularda faoliyat ko'rsatadigan qahramonlarning yakrangligi, g'azallarning oshiqona mavzuda yozilishi, ularda oshiq, ma'shuqa, ag'yor, rind, zohid kabi timsollarning ishtirok etishi kabi holatlar musulmon mintaqa adabiyoti xususiyatlari bilan chuqur oshno bo'lmagan tadqiqotchilarni xato xulosalarga olib kelgan. Shundan bo'lsa kerak, ularga Alisher Navoiy asarlarining yangiligi faqat turkiyda yozilishida bo'lib ko'ringan. Ammo fors-tojik adabiyoti namoyondalari she'riyatida kuzatiladigan o'sha o'xshashliklar G'arb adabiyotshunoslari e'tiboridan chetda qolib ketgan. Shu o'rinda yana bir adabiy hodisani eslatish joizdir. Alisher Navoiy tabiatidagi rostgo'ylik va ustozlarga bo'lgan yuksak sadoqat ham uning uchun "qimmat"ga tushgan. Masalan, u "Lison ut-tayr" dostonining bir necha o'rnida "*tarjima rasmi bilan surdim qalam*",- deya ta'kidlaydi. Holbuki, ijodiy jarayondan yetarli xabardor bo'lmagan, qiyosiy tahlilga murojaat etmagan har qanday tadqiqotchi muallifning o'z e'tirofiga suyansa, bir yoqlama xulosalarga kelishi tayin. Dadil aytish mumkinki, XIX asrning oxiri va XX asrning ibtidosida o'shanday holat sodir bo'lganligi uchun ham ulug' Navoiy bo'yniga "tavqi la'nat" tamg'asi osib qo'yildi. Shukronalar bo'lsinki, ilmiy adolat qaror topdi. Birinchilardan bo'lib prof. E.E.Bertels Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" va Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonlarini qiyosiy o'rganish orqali masalaga aniqlik kiritdi va milliy navoiyshunoslik uni mustahkamladilar.

Ovrupa olimlari Alisher Navoiy asarlarini o'rganish maqsadida lug'atlar tuza boshladi hamda mavjud mumtoz lug'atlarni nashr ettirish ishlarini amalga oshirdilar. Jumladan, rus sharqshunosi V.Vilyaminov-Zernov 1868-yilda Sankt-Peterburgda XVI asrda Aloyi binni Muhibiy tomonidan tuzilgan "Al-lug'at un-Navoiyat val-istishhodat ul-chig'atoiyat" lug'atini nashr ettirdi. Fransuz sharqshunosi Pave de Kurteyl esa Navoiy asarlaridan foydalanib Sharq adabiyoti asarlari uchun lug'at tuzdi. Rus sharqshunosi N.I.Ilminskiy Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarini teran ilmiy tahlil qilish orqali ulug' shoir asarlarining ijodiylikiga urg'u berdi.

I.2. Alisher Navoiy lirik merosining bugungi kunda o`rganilishi

Alisher Navoiy hayoti va ijodini chinakam ilmiy tamoyillar asosida o`rganish XX asrning 20-yillaridan boshlandi. Ulug' shoirning "Xamsa"sini ilmiy, ilmiy-ommabop yo'sinda o`rganish sohasidagi dastlabki dadil qadamni o'zbek xalqining serqirra adibi va birinchi professori Abdurauf Fitrat qo'ydi. Uning "Farhod va Shirin" dostoniga doir qiyosiy tahlil asosida yaratilgan "Farhod va Shirin" dostoni to'g'risida" nomli salmoqli maqolasi shu yo'nalishdagi jiddiy tadqiqotlardan biridir. Sobiq ittifoq hukumatining 1938-yilda Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligini 1941-yilda nishonlash to'g'risida qaror qabul qilishi navoiyshunoslik borasidagi ishlarning yanada jonlanishiga sabab bo'ldi. Sadriddin Ayniy Alisher Navoiy "Xamsa"sining nazmu-nasrdan iborat qisqartirilgan nusxasini yaratdi va mazkur ish lotin yozuvida 1939-yilda nashr bo'ldi. Besh asrlik yosh to'yi munosabati bilan ulug' shoirning "Chor Devon", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mahbub ul-qulub" va yana bir qator asarlari ham chop etildi. Taniqli adib va olim M.Shayxzoda "Genial shoir" nomli asarini yozdi. V.Abdullayev esa Navoiyning Samarqanddagi hayoti va faoliyati haqidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

1941-yilda sobiq ittifoq hududining II jahon urushi janggohlariga aylanishi tufayli Alisher Navoiy yubileyini keng miqyosida tantana qilish kechiktirildi. Shunday bo'lsa-da, nafaqat O'zbekistonda, balki Moskva va hatto qamalda qolgan Sankt-Peterburgda ham I.A.Orbeli, I.Y.Krachkovskiy, E.E.Bertels, A.A.Boldirev, A.N.Kononov, B.B.Piotrovskiy, B.T.Rudenko singari olimlar tomonidan Alisher Navoiy merosini o`rganish ishlari qizg'in davom ettirildi. Ulug' mutafakkir shoir tavalludining 500 yilligi 1948-yil may oyida tantanali suratda o'tkazildi. Shu yili taniqli yozuvchi Oybek tahriri ostida

“Ulug’ o’zbek shoiri” nomli ikkita maqolalar to’plami E.E.Bertels, Sadridin Ayniylarning ilmiy risolalari chop qilindi.

Turkiy adabiyotni jahoniy mavqega ko’targan Alisher Navoiy ijodiy merosini o’rganish turli millat va tilga mansub sharqshunos olimlarning diqqatini ham o’ziga jalb etdi. Navoiyshunoslik fan sifatida shakllana boshladi va uning oldida shoir asarlarini to’plash, Navoiy merosining mukammal bibliografiyasini tuzish, asarlarining nodir nusxalarini aniqlash va ilmiy tekshirish, adib ijodini keng kitobxonlar o’rtasida ommalashtirish hamda undagi dolzarb muammolar yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishdek g’oyatda muhim vazifalar turardi. Shunday qilib, ulug’ shoir tavalludining besh asrlik to’yi soha ravnaqi uchun tub burilish pog’onasi vazifasini o’tadi. XX asrning 40-yillarida ibtido topgan ko’lamdor ilmiy yo’nalishlar 500 yillik umr to’yi tantanalari shaxdam ilgarilayotgan navoiyshunoslikni yanada yangi taraqqiyot pillapoyalariga olib chiqdi. Taniqli adabiyotshunos Porso Shamsiyev tomonidan amalga oshirilgan “Xamsa”ning mukammal nashri, Hamid Sulaymon sa’y-harakati bilan “Xazoyin ul-maoniy” akademik nashri hamda Alisher Navoiy asarlarining o’zbek tilidagi o’n besh tomligining nashr etilishi o’zbek xalqining madaniy hayoti tarixida juda katta ijtimoiy-ma’naviy voqea bo’ldi. Adabiyotshunos olimlardan Yo.Is’hoqovning “Alisher Navoiyning ilk lirikasi” (1965), M.Shayxzodaning “Ustodning san’atxonasida” maqolalar turkumi (1965-66), A.Hayitmetovning “Navoiyning ijodiy metodi masalalari” (1963), “Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan” (1970), Navoiy adabiy an’analarning davomi va takomili xususida V.Abdullayev, B.Valixo’jayev, H.Yoqubov, A.Qayumov, H.Rasulov, E.Ibrohimova, R.Majidiy singari o’nlab salohiyatli o’zbek olimlarining katta-kichik ijodiga doir turfa ilmiy, ilmiy-ommabop asarlar yaratildi va kichik tadqiqotlari vujudga keldi. Shuningdek, Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga doir turfa ilmiy, ilmiy-ommabop asarlar yaratildi va keng maqolalar to’plami (1967), uning ukrain adibi A.Deych bilan birga yozilgan ‘Alisher Navoiy’ ilmiy-ommabop ocherki, T. Jalolovning “Xamsa” talqinlari” (1962), S.G’aniyevaning “Alisher Navoiy” (1969),

S.Narzullayevaning ‘Alisher Navoiy’ (1965), N.Mallayevning “Genial shoir va mutafakkir” (1968), M.Qodirovning “Alisher Navoiy va san’at” (1968) kabi o’nlab mazmundor kitoblari shular jumlasidandir. Alisher Navoiy va adabiy ta’sir muammolari mavzui ham davr navoiyshunoslarining diqqat markazidan o’rin olgan edi. 1968-yilda Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasi FA Til va adabiyot instituti bilan hamkorlikda nashr qilingan “Navoiy va adabiy ta’sir masalalari” to’plami ana o’sha keng qamrovli mavzu ishlanishining kichik bir samarasidir.

O’zbekiston Respublikasi mustaqilligi e’lon qilingunga qadar V.Zohidovning “Ulug’ shoir ijodining qalbi”(1970), A.Hayitmetovning “Tabarruk izlar izidan”, “Navoiy dahosi”, “Meros va ixlos” kabi tadqiqotlari hamda “Hayrat ul-abror” dostonining nasriy tavsifi” (1974), A.Abdug’afurovning “Navoiy ijodining xalqchil negizi” (1973) hamda “Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti” (1974), A. Rustamovning “Navoiyning badiiy mahorati” (1979) singari yirik ilmiy tadqiqotlari vujudga keldi.

Navoiyga ijodini tadqiq etish 60-80 yillarda yanada yuqori pillapoyalar sari ilgariladi.

Mustaqillik arafasida hamda mustaqillik yillarida bu xayrli ishlar jadal suratlarda rivojlandi. Mutafakkir asarlarining 20 jildlik asarlar to’plamining nashr qilinishi, birgina olim I.Haqqulning 10 ga yaqin kitobi Navoiy ijodiga bag’ishlanganligi, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining yaratilayotganligi fikrimizning dalilidir.

Adabiyotshunos olim Yo.Is’hoqov sobiq sovet hokimiyati yillarida Navoiy lirikasini o’rganish borasidagi ishlarning, asosan, ikki yo’nalishda olib borilganligini qayd etadi¹: birinchi yo’l tekstologik tadqiq qilish yoki to’liq nashrini yaratishgacha bo’lgan bosqichlardan iborat. Ana shu sohada amalga oshirilgan ishlarni shunday umumlashtirish mumkin:

a) Navoiy she’rlarining to’plam, xrestomatiya va antologiyalar tarkibida berilishi;

¹ Is’hoqov Y. Navoiy poetikasi. Toshkent, 1983. 5-bet.

b) alohida majmua yoxud tanlangan asarlar tarzidagi nashrlari;

v) akademik nashri.

Navoiy lirik merosining qariyb qirq yil davomida yuzaga kelgan turli nashrlari o'z xarakteriga ko'ra yutuq va kamchiliklarga ega, albatta. Biroq muhimi shundaki, ana shu ilmiy tadqiqotlar Navoiy lirikasining ilmiy-tanqidiy matnini yaratish uchun asosiy zamin bo'la oladi.

Alisher Navoiy lirikasini tekshirishning ikkinchi yo'li esa nazariy xarakterdadir. Bu sohadagi tadqiqot ishlari, asosan, 40-yillarda boshlangan bo'lib, shoirning lirik merosi turli aspektdagi tadqiqotlar manbai bo'lib kelmoqda.

Avvalo, Navoiyning lirik merosi shoir ijodining bir qator nazariy masalalariga bag'ishlangan asarlar tarkibida u yoki bu masala bilan bog'liq holda tadqiq etilgan. Navoiyning falsafiy-ijtimoiy qarashlari, uning satirasi, ijodiy metodi hamda mahorati masalalariga bag'ishlangan monografik tadqiqotlar ana shular jumlasidandir.

Bir qator tadqiqotlar bevosita shoir lirik merosini turli aspektlarda tekshirishga bag'ishlangan. Shuningdek, M.Yunusov, E.Rustamov, O.Nosirov, I.Haqqulov, R. Orzibekovlarning o'zbek klassik poeziyasining ba'zi janrlariga bag'ishlangan maqola va risolalarida ham Navoiy lirikasiga katta o'rin berilgan.

H.T.Zarifov "Ruboiy" nomli maqolasida Navoiy ruboiylarining g'oyaviy-badiiy mohiyatini tahlil etibgina qolmay, ayni zamonda ruboiy janrining spetsifik xususiyatlari, uning o'zbek adabiyotida vujudga kelishi va rivojlanishi uchun zamin bo'lgan milliy adabiy faktorlar haqida ham original mulohazalar yuritadi. "Lutfiy va Navoiy" deb atalgan katta hajmli maqolasida esa o'zbek poeziyasi an'analrining Navoiy she'riyati taraqqiyotida tutgan o'rni, xususan, Navoiygacha bo'lgan o'zbek lirik poeziyasining yuqori cho'qqisi bo'lmish Lutfiy g'azaliyotining Navoiy ijodiga ta'siri xususida jiddiy fikrlar bayon qiladi, bu ta'sirning muhim ko'rinishlarini muayyan tarzda belgilashga harakat qiladi.

Uyg'unning "Xazoyin ul-maoniy" haqidagi maqolasi obzor xarakterida bo'lib, keng o'quvchilar ommasida Navoiyning ulkan lirik merosi va uning mohiyati haqida ma'lum tasavvur paydo qiladi. Maqola muallifi Navoiy g'azallari, ruboiylari, shuningdek, shoir she'riyatining gumanistik mohiyati, uning axloqiy-ijtimoiy qit'alarga murojaat qiladi.

Atoqli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov ham 40-yillardayoq Navoiy poetikasini o'rganish masalasiga maxsus maqola bag'ishlangan.

E.Bertels "Navoiy" monografiyasida Navoiy devonlarining qo'lyozmalari haqida ma'lumot beradi, ularni muqoyasa qiladi. Shu bilan birga, Navoiy turkiy g'azallarining o'ziga xos muhim tomonlari haqida fikr yuritib, ayrim g'azallarining mufassal tahlilini beradi. Navoiy qit'alarining mohiyati haqida maxsus mulohazalar bayon qiladi.

Alisher Navoiy lirikasini nazariy jihatdan tadqiq etish sohasida navoiyshunoslik erishgan dastlabki jiddiy muvaffaqiyatlardan biri Maqsud Shayxzodaning "Navoiyning lirik qahramoni haqida" nomli ilmiy ishidir.

Shayxzoda mazkur ishiga asosiy ob'yekt sifatida "G'aroyib us-sig'ar" devonini asos qilib olgan bo'lsa ham, umuman Navoiy lirik qahramoni haqida fikr yuritadi, shoir lirikasining yetakchi xususiyatlarini ko'rsatishga, uning lirik qahramoniga xos barcha muhim xususiyatlarni butun murakkabligi bilan ochib berishga harakat qiladi.

M.Shayxzodaning "Navoiy lirikasining ba'zi bir poetik usullari haqida" hamda "Ustodning san'atxonasida" sikl maqolalari Navoiy lirikasidagi badiiy tasvir poetikasini o'rganishdek muhim bir vazifani ado etish borasidagi dastlabki ijobiy natijalar deb aytish mumkin.

Oybekning Navoiy g'azaliyoti haqidagi ikkita maqolasi ham shoir lirikasining asosiy mohiyatini ochib berishga bag'ishlangan. Ularda Navoiy g'azallari sharq g'azalchiligi fonida olib tekshiriladi, bu g'azallarining g'oyaviy mazmunini tashkil etgan muhim momentlar haqida fikr yuritiladi.

A.Hayitmetovning “Navoiy lirikasi”¹ monografiyasida ulkan san’atkorning boy lirik merosi batafsil tahlil qilinadi. Shoir lirikasining asosiy janrlari, uning g’oyaviy-tematik asoslari, asosiy obrazlari maxsus boblarda izchil tekshirildi. Navoiy lirik she’rlarining sharqona lirik an`analarga munosabati ustida muhim fikrlar bayon qilindi.

Shu muallifning Navoiyning ijodiy metodiga ba’gishlangan monografiyasida ham maxsus bob lirikaga bag’ishlangan bo’lib, unda Navoiy ijodiy metodining lirik ijodiyotida namoyon bo’lishi masalalarini tadqiq etish diqqat markazida turadi.

N.Mallayev “O’zbek adabiyotida g’azal va uning rivojida Navoiyning roli haqida”² nomli maqolasida Navoiy g’azaliyoti taraqqiyoti uchun asos bo’lgan muhim faktorlar hamda Navoiy g’zallarining bir qator muhim xususiyatlari haqida mulohaza yuritgan.

U “O’zbek adabiyoti tarixi” darsligining “Navoiy lirikasi” bobida ham “Xazoyin ul-maoniy”ning tematik doirasi va g’oyaviy motivlari, shoirning lirikadagi mahoratini tahlil etgan.

Mazkur ishlarning barchasi uchun xos umumiy xususiyat shundan iboratki, ularda Navoiy lirikasining yetuk davri tekshirilgan. So’nggi davrlarda esa ulug’ shoir ijodiy yo’lining ayrim bosqichlari haqida ham ilmiy-tadqiqot ishlari yuzaga chiqq boshladi. Yoqubjon Is’hoqovning “Alisher Navoiyning ilk lirikasi” nomli monografiyasi ana shu tipdagi asar bo’lib, Navoiy ilk she’rlarining g’oyaviy-badiiy darajasini belgilash hamda bu she’rlarining shoir ijodining keyingi bosqichlari bilan aloqasini ko’rsatish uning asosiy mohiyatini tashkil etadi.

A.Abdug’afurovning buyuk adib asarlaridagi satira va yumor tahliliga bag’ishlangan “Navoiy ijodida satira” nomli monografiyasida shoir she’riyati, xususan, g’azal va qit’alari tadqiqot doirasiga keng jalb etilgan.

¹ Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. Toshkent, 1961.

² Mallayev N. O’zbek adabiyotida g’azal va uning rivojida Navoiyning roli haqida. O’zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 1971-yil. 3-son.

A.Rustamovning “Navoiyning badiiy mahorati” asarida shoir poetikasi bilan aloqador ba’zi masalalar talqinida, “Xamsa” bilan bir qatorda, lirik she’rlarga ham murojaat qilingan.

Yuqorida eslatilgan asarlarning ba’zilarida Navoiy poetikasi bilan aloqador ba’zi masalalar, xususan, janr poetikasining ayrim qirralari u yo bu darajada tahlil etilgan.

Navoiy tavalludining 550 yilligini nishonlash mamlakatimiz mustaqilligining birinchi yiliga to’g’ri keldi. Bu tarixiy sana har jihatdan yuksak darajada nishonlandi. Shu vaqtdan e’tiboran Navoiyni o’rganishning yangi davri boshlandi, deyish mumkin. Shu yillar davomida Navoiy va bizning oramizda har qachongidan ham ko’proq yaqinlik paydo bo’ldi. Bu yil shoir tug’ilganining 572 yilligi nishonlandi. Ammo Navoiyni o’rganish bizning doimiy ishimizdir. Mustaqillik yillarida bu sohada talay ishlar amalga oshirildi. Ular ichida shoir asarlari yigirma jildligining bosilib chiqqani, “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti, “Xamsa”dagi dostonlarning alohida-alohida kitob holida nashr etilgani ilmiy va madaniy hayotimizda muhim voqeadir.

Ma’lumki, shoir tavalludining 550 yilligi munosabati bilan 1991 -yil mamlakatimizda Alisher Navoiy yili deb e’lon qilingan edi. SHu munosabat bilan juda ko’plab tadbirlar o’tkazildi. Toshkent shahrida Navoiy haykali va Milliy bog’i tantanali suratda ochildi. Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov ana shu marosimda so’zlagan nutqida shunday degan edi: “Alisher Navoiy yili” deb e’lon qilingan 1991 yil yurtimiz, elimiz tarixida qutlug’ keldi, unutilmas sana bo’lib qoldi. Bu yil xalqimizning asriy orzu-umidlari amalga oshirildi. O’zbekistonimiz davlat mustaqilligini e’lon qildi va o’z taqdirini endi o’zi hal qiladigan bo’lib qoldi... O’z tarixi va ajdodlarini siylagan xalqning kelajagi, albatta porloq bo’ladi”. Mustaqillikning 22 yili bu so’zlarning haqqoniyligini isbot etdi. Biz taraqqiyot va o’zgarishlar yo’lidan dadil olg’a yurdik. Ayni paytda, tariximizning noma’lum sahifalarini oydinlashtirish, xalqimizning madaniy va ma’naviy merosini tiklash borasida katta ishlar qilindi, o’nlab allomalarimizning tavallud sanalari xalqaro miqyosda nishonlandi. SHular qatori

biz Navoiyni ham qaytadan kashf etdik. Uning ilgari bosilmagan asarlari nashr etildi, ijodi yangi, adolatli mezonlar asosida tahlil qilina boshladi. Darsliklarga ham shoirning asl qiyofasini belgilaydigan asarlari kiritildi.

Oldimizda turgan eng muhim vazifa navoiyshunoslikni metodolgik jihatdan mustahkam asosda qurish va mukammallashtirish, shu yo'nalishda uning bundan keyingi rivojlanishini ta'minlashdir. Bu o'rinda taniqli olim A.Hayitmetov shunday mulohazalarni ilgari suradi: "Navoiy ijodini o'rganishdagi muhim masalalardan biri- shoir asarlarini davrlarga bo'lib tadqiq etish. Navoiy o'zi ham o'z she'riy merosini bolalik, yigitlik, o'rta yosh va, nihoyat, keksalik davriga bo'lishga harakat qilgani bejiz emas. Lekin uning bu rejasi ba'zi sabablar bilan amalga oshmay qolgan. Bizga shoirning bir qancha asarlarini qaysi vaqtda yozgani ma'lum. Katta qiyinchilik uning lirik she'riy merosi bilan bog'liq. Shoirning rasmiy devonlarida uning turli davrlarda yaratgan she'rlari o'zaro aralashib ketgan. Yaqin o'tmishda bu masalalarga oydinlik kiritishga harakat qilingan. Ammo bu muammo to'la hal qilingan deyish qiyin. Mavjud davriy jadvallar shartli ma'nodadir. Xususan, shoirning bolalik va yigitlik davridagi sh'rlari, forsiy tilda yozgan she'rlari davriy sistemaga solinmagan. Bu sohada prof. H.Sulaymonov boshlagan ishlarni davom ettirish zarur"¹.

Hozirgi vaqtdagi eng muhim muammolardan biri Navoiy asarlari tili va uslubining hozirgi kitobxonlar tushunishi uchun qiyin va murakkabligidir. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida mamlakatimiz Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov bu masalaga keng jamoatchilikning e'tiborini tortib, o'zlarining prinsipial mulohazalarini bildirdilar. Biz bunday jiddiy xulosalar chiqarishimiz kerak. Chindan ham zamondoshlarimiz orasida Navoiy asarlarini o'qish va o'rganishga qiziqish, intilish kuchli. "Biroq shoir asarlari tilidagi qator murakkabliklar bu maqsadlarni amalga oshirishni og'irlashtirmoqda. Biz Navoiy asarlarini keng o'quvchilar

¹ Hayitmetov A. Alisher Navoiy ijodini o'rganishning metodologik asoslari haqida // O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2001. 2-son. 2-10 betlar.

ommasiga tushunarli qilishning yangi usullarini aniqlashimiz va bu sohada yangi rejalar tuzishimiz zarur. Biz shoir asarlarini ko'p miqdorda nashr etsag-u, lekin kitobxonlar ularni o'qib yaxshi tushunmasa, bu bugungi navoiyshunoslik fanimizga sharaf keltirmaydi"¹.

“Yoshlarimiz Navoiyni qanchalik chuqur va puxta bilsa, - deydi navoiyshunos olim Ibrohim Haqqul, - ma'rifat, ezgulik, komillik sirlarini o'shancha kengroq egallaydi. Navoiyning so'zlari diliga o'rnashgan odam, o'zi istasin-istamasin, odamiylik sharafi va kuch qudratini idrok etadi. Navoiy saboqlarga amal qilgan kishi o'z-o'zidan xalq dard tashvishlarini yengillatishga bel bog'laydi. Fikrni-fikrsizlikka ilm-ma'rifatni-nodonlikka va jaholatga qarshi qurol o'rnida ishlatadi. Navoiyni yetarli darajada bilish-adolat, diyonat, imon-e'tiqodning kuchiga ishonch demak. Ko'nglida shu ishonch g'olib bo'lgan odamlar soni jamiyatimizda qancha ko'paysa, insoniy muammolar har qalay kamayib boradi. Eng muhimi diniy hayotdagi mahdudlik va chalg'ishlar yosh avlod ongidan tezroq barham topadi. Bunga sira shubhalanmaslik lozim"².

Alisher Navoiy mumtoz adabiyotimizning markaziy siymosi. Turkiy adabiyotning eng ilg'or va bezavol yutuqlari shoir she'riyatida mujassamlashgan. Buni Ozarboyjonning Benazir shoiri Muhammad Fuzuliy, turkman klassigi Mahdum quli, qozoq oqini Abay, qoraqalpoq yozma adabiyotining asoschilaridan bo'lmish Berdaqning e'tiroflaridan ham anglash mumkin. Demak, Navoiy ijodi qardosh xalqlar bilan bo'lgan asriy aloqalar, do'stlik munosabatlarini yanada mustahkamlash va yangi pog'onalarga ko'tarishdagi o'ziga xos muhtasham asosdir. Navoiy va Jomiy o'rtasidagi ustozu shogirdlikni esa har qancha ibrat qilib ko'rsatsa, o'shancha kam. Chunki bunday hodisalar ko'hna tarix uchun ham kamyobdir.

¹ Hayitmetov A. Alisher Navoiy ijodini o'rganishning metodologik asoslari haqida // O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2001. 2-son. 2-10 betlar.

² Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Toshkent, 2007. 10-bet.

II. Alisher Navoiyning avtobiografik g'azallariga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar .

II.1. Navoiyning avtobiografik g'azallarida ijtimoiy motivlar

Ma'lumki, XV asr va undan keyingi davrlar o'zbek lirik shoirlari ijodida bo'lganidek, o'n oltita janrdan tashkil topgan Navoiy lirikasi doirasida g'azal yetakchi o'rin tutadi. Navoiy g'azallari faqat son jihatidan emas, balki g'oyaviy-badiiy salmog'i jihatidan ham o'rta asr g'azalchiligining yuksak namunalaridan bo'lib qoldi. O'zbek adabiyotidagi mavjud g'azal namunalari XIV asrning boshlariga mansub.

Rabg'uziy "Qissai Rabg'uziy" asari tarkibidagi "Bahoriyot" she'ri tavsifiy xarakterdagi g'azalning tipik namunasi hisoblanadi. Bundan tashqari, shu asar tarkibida yana 4 ta 7 baytli, 1 ta 10 baytli va 1 ta 14 baytli g'azal shaklidagi she'rlar mavjud. Ularning aksariyati syujetli bo'lib, ayrimlarida qasida xarakteri ko'zga tashlanadi. Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si tarkibida ham o'zbekcha va forsiy beshta g'azal mavjud.

O'sha asrning ikkinchi yarmida esa o'zbek g'azalchiligi doirasi yana ham kengayganligini ko'ramiz (Sayfi Saroyi va uning zamondoshlari g'azallari).

XV asrning boshlariga kelib, Lutfiy, Atoyi, Sakkokiy va Gadoyilarning ko'plab g'azallari o'zbek tilidagi g'azalning yetuk namunasi sifatida keng shuhrat qozondi. Keyingi paytlarda topilgan Hofiz Xorazmiy devoni o'zbek g'azalchiligi borasida ancha samarali ijod qilinganligidan dalolat beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek tilidagi g'azal namunalari XIV asr boshidagi yodgorliklarda uchrar ekan, bu o'zbek g'azalnavisligi ana shu davrdan boshlangan deb xulosa chiqarish uchun asos bo'lmaydi. Chunki X- XIII asrga mansub ko'pgina asarlar bizning davrimizga qadar yetib kelmagan yoki hozircha topilgan emas. Buning ustiga XIV asr g'azallarining badiiy saviyasi ham o'zbek g'azalnavisligida ancha boy tajriba to'planganligidan guvohlik beradi.

XV asr boshlarida esa o'zbek g'azali o'zining muayyan uslubi, tematikasi va boy tasviri vositalariga ega bo'lgan yetakchi janr sifatida mashhur bo'ldi. Hatto ko'pgina o'zbek shoirlari o'z devonlarini ham tuzganlar (Lutfiy, Atoyi, Sakkokiy, Gadoyi, Hofiz Xorazmiy kabi).

Alisher Navoiy o'z ona tilida g'azallar yaratishga kirishar ekan, bu sohada vujudga kelgan bir necha asrli boy tajribalarga suyandi. Shuning uchun ham u o'ziga qadar o'zbek tilida ijod qilgan adabiyot namoyondalarini ehtirom bilan yondashib, xolisona baho beradi; ularning o'zbek tili va milliy adabiyotni rivojlantirishga o'ynagan roli va mavqeini belgilashga harakat qiladi.

Alisher Navoiyning buyuk xizmati shundaki, u o'zbek lirikasini, jumladan g'azal janrini yuqori bosqichga, yuksak darajaga ko'tarish uchun kurash jarayonida faqat milliy an'analarbilangina qanoatlanib qolmay, ko'p asrlik tajribaga ega bo'lgan fors g'azalchiligining katta yutuqlari ham qunt bilan o'rganib, uning ilg'or tradisiyalarini o'zbek she'riyati taraqqiyotiga xizmat qildirdi.

Navoiy g'azaliyotining yuzaga kelishida yana shunday an'analarning ma'lun rol o'ynaganligi shubhasiz, albatta. Lekin uning keyingi taraqqiyoti novator shoirning yuksak mahorati va o'ziga xos estetik prinsiplari bilan bevosita bog'langan.

Navoiyning avtobiografik g'azallari haqida gapirar ekan, adabiyotshunos olim A.Hayitmetov shunday fikrlarni qayd etadi: "Alisher Navoiyning avtobiografik xarakterdagi she'rlarida uning davrga, atrofni qurshab turgan muhitga va kishilarga munosabati ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanib turadi. SHu bilan birga, shoir an'anaviy mavzulardagi she'rlarining ayrimlarida, goh baytlarning orasida, goh she'r oxirlarida, goh lirik chekinish shaklida, goh didaktik shaklda, goh biron munosabat bilan o'z dunyoqarashiga doir fikr va mulohazalarini bir misrada yoki bir baytda ustalik bilan ifodalab keta olgan"¹. Bunday jihatlarni Navoiy lirikasini sistemali ravishda kuzatish va har qaysi she'rning asosiy mazmuni bilan tanishib borish jarayonida kuzatish mumkin.

¹ A.Hayitmetov Navoiy lirikasi. Toshkent, 1961. 20-bet.

O'z davrining chinakam buyuk shoiri Alisher Navoiy bir qancha she'rlarida o'zining shaxsiy hayoti va his-tuyg'ularini, jamiyatga bo'lgan munosabatalarini to'g'ridan-to'g'ri, bevosita ochiq yozgan paytlari ham ko'p bo'lgan. G'azalda shaxsiy ahvoli haqida yozish Rudakiy she'rlarida ham, undan keyingi yirik shoirlar ijodida ham uchraydi. A.Mirzoyev "Rudakiy va 10-15 asrlarda g'azal taraqqiyoti" asarida Anvariyl devonidan avtobiografik xarakteridagi bir g'azalni misol sifatida keltiradi. Bunday g'azallarni Anvariyl va boshqa shoirlar ijodidan yana keltirish mumkin, g'azalchilikdagi bu xususiyat Navoiyda ancha kengaytiriladi, chuqurlashtiriladi. Bunday g'azallar uning devonlarida sistematik ravishda uchraydi. Bu mavzudagi Navoiy g'azallarining Navoiygacha yozilgan avtobiografik g'azallardan farqi shundaki, Navoiy g'azallarida faqat o'z ahvolini bayon qilib qolmasdan, o'zining jamiyatga bo'lgan munosabatini ham yoritgan. Ya'ni, o'z ahvolini yashagan sharoiti, zamoni bilan bog'liq holda aks ettirishga, ma'lum kayfiyatining sabablarini ko'rsatishga intiladi. Bu g'azalchilikda oldinga qarab siljish edi.

Navoiy o'zi yashab turgan jamiyat bilan ming xil iplar bilan chambarchas bog'langan kishi edi. Shoir kundalik turmushida jamiyat hayotidagi barcha hodisalar va masalalar bilan to'qnashar, ularga o'z munosabatini bildirar edi. Bunday shaxsning poeziyasi ham shu jamiyat hayoti bilan yaqindan bog'langan bo'lishi tabiiyligi, ba'zi o'rinlarda hayot uning asarlarida to'g'ridan-to'g'ri yorqin aks etgan bo'lishi mantiqan tushunarlidir. Shoirning shaxsiy hayoti bilan bog'langan, uning shaxsiy kayfiyati asosida yaratilgan g'azallarni A.Mirzoyev va boshqa tadqiqotchilar avtobiografik g'azallar deb ataganlar. Ammo shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, Alisher Navoiyning bunday g'azallari g'oyaviy-tematik jihatdan tor shaxsiylik darajasidan ancha yuqori ko'tarilganki, buni aniq misollarda ko'rish mumkin. Navoiygacha yashab ijod qilgan o'zbek shoirlari g'azallarida bu mavzu hali yo'q darajada edi. O'zbek shoirlari g'azal mavzusi ko'proq an'anaviy ruhda, ancha tor tushunar, asosan, ishqiy lirika yaratish bilan cheklangan edilar.

Demak, Alisher Navoiyning o'zbek g'azalchiligiga avtobiografik mavzuni olib kirishining o'zi ham yangilik, o'zbek lirikasini tematik boyitish, uning taraqqiyotiga yana yangi bir yo'l ochish edi.

Hamid Sulaymonov "G'aroyib us-sig'ar" she'rlarining xronologiyasi, vazni va baytlar soni ko'rsatkichi" degan "Ilova-1" da Alisher Navoiyning shu devondagi ikki g'azali yigitlik yillarida yozilganligini ko'rsatadi. Bu g'azallarning mazmuniga mantiqan yondashadigan bo'lsak, bu haqiqatga yaqinligini bilishimiz mumkin. Bu g'azallarning biridi shoir yozadi:

*Parim bo'lsa uchib qochsam ulustin to qanotim bor,
Qanotim kuysa uchmoqdin, yugursam to hayotim bor.*

*CHiqib bu dayrdin Isog'a nevchun hamnafas bo'lmay,
Bihamdillah, tajarrud birla himmatdan qanotim bor.*

*Xaloyiq suhbatidin ming g'amim bordurki, muft o'lg'ay,
Agar ming jon berib bilsamki, bir g'amdin najotim bor.*

*CHekib ag'yordin yuz javru tortib yordin ming g'am;
Ne o'zga xalqdin g'ayrat, ne o'zumdin uyotim bor.*

*Kechib ko'zdin yozay bir xatki, dahr ahlig'a ko'z solmay,
Bu damkim, ko'z savodidin qaro ko'zdin davotim bor.*

*Tilar ko'nglim qushi anqodin o'tsa nori yuz vodiy,
Muningdek sayr etarga Qofdin ortuq sabotim bor.*

*Navoiy, bilki, shah ko'ngli manga qayd o'lmasa, billah,
Agar kavnaynga xoshok chog'lig' iltifotim bor.*

Har qanday ulug' san'atkorning she'rida so'z uning o'zi aks ettirishni istagan fikr va tuyg'udan bir necha hissa ortiq ma'nolarni ifodalaydi. SHuning

uchun haqiqiy sheʼrning gʻoyaviy-badiiy tarkibida hamisha nimalardir sir boʻlib, allaqanday maʼno gavhari yashirinligicha qolaveradi. Eng zukko sheʼrshunosning ham tahlil imkoniyati cheklangan. Chunki u har qancha urinmasin, soʻzning majoziy mohiyatini barcha rang, ohang tovlanishlari bilan idrokdan oʻtkaza olmaydi. Birdaniga bir necha ramziy mazmunlarni tarkibiga barlashtira olgan sheʼr – chinakam sheʼr. Alisher Navoiyning gʻazali shu daʼvoning yorqin isbotidir. Uni oʻqigan bugungi kun oʻquvchisi taxminan mana bunday xulosalarga keladi: “bunda shoir oʻzining siqilgan bir holatda qolganini yozmoqda. U qanoti boʻlsa bitta pati qolguncha uchib, atrofini qurshagan ulusdan, yaʼni xaloyiqdan uzoqlarga qochib ketsa; quyosh issigʻidan qanotlari kuysa, hayoti boricha yugirib qochsa. U bu dunyodan shunchalik bezor boʻlganki, Iso kabi osmonga chiqib ketishga tayyor. Odamlarning oʻzaro suhbatlari, oʻzi toʻgʻrisida nohaq gapirishlari shu qadar joniga tekkanki, bundan uning ming gʻami bor. Shu ming gʻamning bittasidan qutulish uchun u ming jonini berishni oʻziga foydali deb biladi. Dushmanlar unga jabr keltirsa, doʻstlar gʻam keltiradi. Shuning uchun u hammaga befarq qaraydi. Koʻz oldidagi odamlarni koʻrishga koʻzi yoʻq. Ularni koʻrmaslik uchun koʻzlarini oʻyib, siyohdon qilib, koʻz qorasidan xat yozsam deydi. Shoirning koʻngil qushi uzoq Qof togʻida yashaydigan anqo qushidan yuz vodiy nariga safar qilishin orzu qiladi. Bunga erishish uchun uning chidami qof togʻidan ham buyuk” .

Gʻazalning shaxs va zamon oʻrtasidagi ziddiyatlardan mulohaza qoʻzgʻagani yaxshi, albatta. Lekin bu shoirning qoʻliga qalam tutqazgan asosiy dard yoki bosh maqsad emas. Sheʼrni tahlil qilar ekan, adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul shunday qarashlarni ilgari suradi: “Navoiy gʻazalida “Man”likdan kechib, “San”likka yuz burgan lirik qahramonning sirli kechinmalari, olami gʻarb sari parvozi tasvirlangan.

Erur maqsad yiroq, vodiy uzun, tun tiyra, yoʻl burtoq,

Bu yoʻlda salb etib oʻzlik yukin, oʻzni sabukbor et, -

deydi Navoiy boshqa bir o'rinda. Yuqoridagi g'azal qahramoni "o'zni sabukbor" eta olgani uchun ham "uchib qochmoq" niyatini ochiq izhor etgan"¹.

"Parim bo'lsa" demoq bilan odamda par paydo bo'lmaydi. "Uchub qochsam" deyish ulusdan qutulish chorasi emas. "Qanotim kuysa..." Darvoqe, qanot nimadan kuyadi? Quyosh otashidanmi? Yo'q, husn quyoshining nuridan. Navbatdagi baytni o'qib anglaymizki, lirik "men" "parim bo'lsa uchub qochsam..." deya asossiz so'zlamagan ekan. Unga samoga uchgan Iso payg'ambar o'rnak. U Isoga hamnafas bo'lishni istaydi:

*CHiqib bu dayrdin Isog'a nevchun hamnafas bo'lmay,
Bihamdillah, tajarrud birla himmatdan qanotim bor.*

Dayrdin chiqmoq – bu dunyoni tark qilmoq. Ammo "nobakor olam"dan baland ko'tarilish uchun ham qanot kerak. Shu ma'noda tajarrud – voz kechish va himmat tilga olingan.

Diydortalab oshiqlarning suhbatlari – ilohiy suhbat. Ular uchun, Ibn Arabiy aytmoqchi, jimlik va sukut oriflikning oliy belgisi, negaki, "bilgan gapirmaydi, gapirgan bilmaydi". Haqiqiy ishq ahlining iqroriga ko'ra, "Qay yerda tinchlik bo'lsa, haq ila birlik bo'lar". Xaloyiqning o'tkinchi manfaatlarga daxldor mashmasha va g'avg'olari ana shu xayoliy birlikka xalal beradi.

*Xaloyiq suhbatidin ming g'amim bordurki, muft o'lg'ay,
Agar ming jon berib bilsamki, bir g'amdin najotim bor.*

"Xaloyiq suhbatidin ming g'am" iskanjasida qolgan kishi najot tilashi tabiiy. Ammo bu "ming g'am"dan bittasida ham najot yo'q. Agar bo'lganida tekinga "ming jon berib" bo'lsa-da, uni bilish mumkin.

*CHekib ag'yordin yuz javru tortib yordin ming g'am;
Ne o'zga xalqdin g'ayrat, ne o'zumdin uyotim bor.*

Birinchi misrada gap yor va ag'yor haqida. Ag'yor dushman yoki g'anim. U yuz javr ko'rsatgan bo'lsa, yor yoxud do'st ming g'am yetkazgan. SHu bois o'zdan ham, "o'zga xalqdin" ham uzoqlashilgan.

¹ Ibrohim Haqqul. "Parim bo'lsa, uchub qochsam..." / Alisher Navoiy. G'azallar. SHarhlar. Toshkent, 1991. 148-bet.

“Raqib”, “ag’yor” deganda biz salbiy qiyofadagi inson to’g’risida o’ylashga ko’nikib qolganmiz. Holbuki, tasavvuf adabiyotida “raqib” va “ag’yor” haqidagi fikrlar nafsga tegishlidir.

To’qqiz mingdir bu nafs hashorati,

Mudom egurlidir alarning oti...

YUnus Emro “To’rt kishidir yo’ldoshim...” deydi. “Ul to’rtning biri – jon, biri – din, biri – iymon” Xo’sh, oxrigisi-chi? Mana, eshiting:

Biri nafsimdur dushman,

Anda savashib qoldim...”¹

Tasavvuf she’riyati bilan chuqur yaqinligi yo’q Zahiriddin Muhammad Bobur ham “shahvatu nafs qaviy dushmandur”. “Nafs yog’iysini mag’lub etgil”, nafs “Dushmanedur agarchi o’tru emas, lek bir lahza sendin ayru emas”, deya ogohlantiradi.

Navoiyning “Chekib ag’yordin yuz javr...” deyishi, bu – “nafsi zolim”ga tegishli. “Yor” esa “vujudi mutlaq”dir. Nafsnı yengish – “o’zlik imoratin” buzish. Aks holda “*Ne o’zga xalqdin g’ayrat, ne o’zumdin uyotim bor*”, deyish holatiga ko’tarilish imkonsizdir. .

Kechib ko’zdin yozay bir xatki, dahr ahlig’a ko’z solmay,

Bu damkim, ko’z savodidin qaro ko’zdin davotim bor.

Nega ko’zdin “kechib bir xat” yozish kerak? Faqat dahr ahlig’a ko’z solmaslik uchunmi? Yo’q, albatta. “Jon ko’zi” YOrni ko’rib, “Dil ondin xabar” bergach, husn shohi jon ichında joylashib, ko’ngilni arsh” aylaydi. Bu botin ko’zning ochilishi:

“Botin ko’zdir Do’stni ko’rgan,

Bu zohir ko’z yobondadur”

Ko’zdan kechish va “ko’z savodi”ga oid haqiqat asosan ana shu.

Tilar ko’nglim qushi anqodin o’tsa nori yuz vodiy,

Muningdek sayr etarga Qofdin ortuq sabotim bor.

¹ Ibrohim Haqqul. “Parim bo’lsa, uchub qochsam...” / Alisher Navoiy. G’azallar. SHarhlar. Toshkent, 1991. 149-bet.

Bu ikki misrada fano vodiysiga sayr e'tiborda tutilgan. Chunki Anqo qushidan ham “nori yuz vodiy”ga o'tishga fano ahligina qodirligiga Navoiyning o'zi bir o'rinda guvohlik bergan:

Uruj istar esang bu dayr ichinda foniy o'lg'ilkim,

Malak uzra qadam bosib o'tar ahli fano gustoh.

Demak, she'r qahramonining Anqo manzilidan ham “nori yuz vodiy”ga sayr etarga saboti bor. Axir uning ko'ngli “fano kuchidan zo'rbozu” istayotir. G'azalning so'nggi baytini o'qiymiz:

Navoiy, bilki, shah ko'ngli manga qayd o'lmasa, billah,

Agar kavnaynga xoshok chog'lig' iltifotim bor.

Nihoyat, bosh muddao gapirildi. SHohning ko'ngli shoirga moyil emas. SHuning uchun ikki dunyoga ham uning “xoshok chog'lik” iltifoti yo'q. Professor A.Hayitmetov g'azal shoirning yigitlik vaqtida yaratilganiga tayanib o'sha shoh “Navoiyga dushmanlik nazari bilan qarab, unga Hirotda kun bermagan zolim Abu Said edi. Uning davrida Navoiy Hirotda nihoyatda qiynalabi, bir pulgi zor bo'lib, turishga uyi yo'q, yeyishga ovqati yo'q holda yashaydi... Hirotdagi xushomadgo'y feodallar podshoning Navoiyga munosabatining yomonligini bilib, unga nisbatan yaxshi qaramaganlar. Natijada, shoir yuqoridagi g'azalda tasvirlangan holga tushib, oxiri Hirotdan ketib qolgan”¹, - deb yozadi. G'azaldagi umumiy ruh, mistik kechinmalarning nihoyatda quyuqligi, so'z va ohangdagi g'amginlik shunday xulosa chiqarishga asos beradi. Ammo g'azalning g'oyaviy-badiiy mundarijasi boshqa mulohazalarni o'rta tashlashga ham monelik qilmaydi.

Ushbu g'azalni tasavvufiy qarashlar asosida tahlil qilgan olim Ibrohim Haqqul shunday xulosa chiqaradi: “Alisher Navoiy g'azallaridan birida shohga murojaat qilib, o'zni “o'z din ulug'roq shohga hojatmand” bilishga chaqirgan. Bu shoh – Oллоh. Bizningcha, g'azal xotimasida ana shu shohdan marhamat kutilayotir. SHoirning ikki dunyoni ham xoshokcha nazarga ilmasligi bir zolim

¹ A.Hayitmetov Navoiy lirikasi. Toshkent, 1961.154-bet.

podshohning munosabatigagina bog'lansa, she'rda aksini topgan ilohiy-falsafiy mohiyat o'z-o'zidan maydalashadi"¹.

*YUgurma rizq uchun, ne yetsa haqdin anglakim, komil,
Ne kelturgil demish, ne g'aybdin yetganin qaytormish.*

Navoiy eng mushkul ahvolda ham shu e'tiqodga sodiq qolganligi va Tangridan boshqasidan qo'rqish, shavqat tilashni gumrohlik bilganligi shubhasizdir.

Navoiyning shu devonidagi ikkinchi bir g'azali ham xarakterlidir. Bunda shoir o'z zamonidan shikoyat qiladi, unda vafo va vafodor odamlar kam qolganini, vafo ahli boshiga ko'p jafo yog'ilyotganini aytadi. Shoir jonini garovga qo'yib ham olam ahlidan vafo topa olmaganini so'zlab turib, u kabilarni o'lim hukmi bilan qo'rqitmoqchi bo'layotgan shohga o'zining o'limdan qo'rqmasligini bildiradi:

*Vafo ahliga davrondin yetar javru jafo usru,
Jafosidin aning ozurdadur ahli vafo usru.*

*Bukim, ahli vafo gulyob erurlar ondin erkankim,
Bu eski toq alarg'a yog'durur gardi balo usru...*

*Fido jonimni aylab, olam ahlidin tama' qildim –
Vafo, astag'firulloh, qilg'on ermishmen xato usru.*

*Rizo ahlin siyosat tig'idin qo'rqutmag'il, ey shah,
Ki qatlingdin sening qarqarg'a o'lmaydur gado usru...*

Garchi, yuqoridagi g'azal bilan bu g'azal bir davrda yozilgan bo'lsa ham, ammo ular o'rtasida mazmunan farq bor. Yuqoridagi g'azalda shoir o'z noroziligini passivroq ifodalagan. Chunki unda shoir qiyin ahvoldan qochib

¹ Ibrohim Haqqul. "Parim bo'lsa, uchub qochsam..." / Alisher Navoiy. G'azallar. SHarhlar. Toshkent, 1991. 150-bet.

ketish bilan qutulmoqchi. Bu g'azalda esa shoir o'z noroziligini ochiqroq va faolroq ifodalamoqda. Shohning tahdidiga ham dadil, qo'rqmasdan javob bermoqda. Bu g'azal shoirning sabru toqati nihoyasiga yetganda, Abu Said haqida aniq bir fikrga kelganda yozilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Bunday she'rlarda shoirning ruhiy va hayotiy dramasi yaqqol aks etgan.

Bundagi "vafo" so'zi keng ma'noda tushunilishi kerak. Shoir xususan, o'z lirikasida bu so'zni shu xilda qo'llaydi. U umuman yaxshi, insofli, sodiq, adolatli, insonparvar odamlarni vafodor deb, zolim, qabih, ichi qora, makkor odamlarni esa bevafo deb ataydi. Lirikada shoir jamiyatdagi odamlarni ikki guruhga – vafodor, vafosizlarga bo'ladi. SHuning uchun "vafo" tushunchasi bilan bog'liq so'zlarni hamma o'rinda bir xilda emas, shoir ko'zda tutganicha tushunish zarur. Shoir: "VAfo ahlig'a davrondin yetar javru jafo usru..." – der ekan, mazlumlar ustidan zolimlarning hukmronlik qilib, ularga jabr-zulm qilayotganini, jamiyat shu xilda qurilganini aytmoqchi. Bunday jamiyatda yashab ijod qilayotgan shoir o'zini mazlumlar bilan birga sezadi. Ularning yonini oladi, ularni himoya qilmoqchi bo'ladi. Navoiy lirikasining insonparvarlik mazmuni ham ana shulardan iborat.

Shoirning avtobiografik g'azallari orasida "Navodir ush-shabob"dagi quyidagi g'azal ham diqqatga sazovordir:

*Topmadim ahli zamon ichra bir andoq hamdame,
Kim zamon osibidin bir-birga aytishmoq g'ame.*

*Kimki, davron sog'aridin dam-badam xunob ichar –
G'am yo'q ar har dam g'amin ayturg'a istar hamdame.*

*CHarx uzukning halqasidur, lek har kavkab anga –
Qatl uchun ostida qilg'on zahr pinhon xotame.*

*Yo'q farog'at dahr arokim, shomdin sochin yoyib,
YOg'durub ashkin, tutar holingg'a har tun motame.*

Gar budur olam, kishiga mumkin ermas anda kom,

Haq magarkim kom uchun boshtin yaratqoy olmaye...

Bu g'azal shoirning hayot haqidagi chuqur falsafiy mulohazalarini lirik shaklda aks ettiradi va bu fikrlar original, yuksak obrazlar vositasida ifoda etiladi. Shoir o'z zamoni kulfatlarini dardlashishga biror yaqin do'st topolmaydi. Zamona tufayli qon yutgan odamning vafodor do'st qidirish tabiiy. Shoir osmonni uzukning halqasiga, osmondagi har yulduzni uzukning ostiga yashirincha zahar joylashtirilgan ko'ziga o'xshatadi. O'sha vaqtlardagi tushuncha bo'yicha, har bir kishining osmonda o'z yulduzi bo'ladi. Osmonda yulduz uchib o'chganda, yerda ham bir kishi o'lar emish. Navoiyning tasviricha, odamlarning qatl etilishi charx uzugining ko'ziga zahar joylashtirilganligidandir. Dunyoda farog'at yo'q. Har sutkada tun bo'lishining sababi shuki, u har safar shomdan qora sochini yoyib, yulduzlardan ko'z yoshi to'kib, odamlarning holiga motam tutadi. Bundan shoir xayyomona xulosa chiqaradi:olam shunday qurilgan ekan, unda odamning maqsadga erishishi iloji yo'q ekan, xudo bu olamni maqsadbop qilib boshqatdan yaratishi kerak.

Navoiy g'azallarida chuqur falsafiylikni, hissiyotni ko'ramiz. U avtobiografik g'azallarni yigitlik yillarida ham, o'rta yoshida ham, qarilik paytlarida yozdi. Hayot haqidagi shaxsiy fikrlarini zo'r badiiylik, poetik ehtiros bilan umumlashtira olgan edi.

Shoir shaxsiy hayoti bilan bog'langan she'rlarida an'anaviy romantik obrazlarni kam qo'llaydi. Ularning yozilish uslubi hayotiy va realistikdir. Bu asarlarda shoir bor haqiqatni o'z jonli tili bilan, kitobxonga yonma-yon turganday, tasvirlab beradi. Ammo shoir o'z shaxsiy kayfiyatini romantik uslubda tasvirlagan o'rinlar ham ba'zan uchraydi. Masalan, quyidagi g'azalini olaylik:

Junun vodiysig'a moyil ko'rarmen joni zorimni,

Tilarmen bir yo'li buzmoq buzulg'on ro'zgorimni.

*Falak bedodidin garchi meni xoki g'ubor o'ldum,
Tilarmen topmag'aylar to'tiyoliqqa g'uborimni.*

*SHak ermas partavi tushgach uyi ham, raxti ham kuymas,
CHu go'riston gadoyi sezmagay sham'i mazorimni.*

*Demang qoy sori azm etkung. manga yo'q ixtiyor oxir,
Qazo ilkiga bermishmen inonu ixtiyorimni.*

*Tugondi ashki gulgun, emdi qolmish za'faroni yuz,
Falak zulmi badal qildi xazon birla bahorimni.*

*Diyorim ahli birla yordin boshimg'a yuz minnat,
Ne tong boshim olib ketsam, qo'yub yoru diyorimni.*

*YOmon holimg'a bog'ri og'rig'ay har kimsakim ko'rgay,
Bag'ir pargolasidin qong'a bo'lg'onhon uzorimni.
Hayotim bodasidin sargaronmen usru, ey soqiy,
Qadahg'a zahri qotil quy, dog'i daf' et xumorimni.*

*Jahon tarkini qilmay, chunki tinmoq mumkin ermastur,
Navoiy, qil meni ozod o'rtaq yo'qu borimni.*

Ushbu g'azal adabiyotshunos olimlar, adabiyot ahli, she'riyat ixlosmandlari e'tiborini o'ziga jalb qilib kelayotgan g'azallardan biridir. O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov g'azalni tahlil qilar ekan, g'azalni "falak bedodidan, bemehr odamlar jabridan shoirning chekkan nolasi" deb baholaydi¹. "Navoiy dahr zulmidan boshiga yog'ilgan balolarni, – deydi shoir, – baytdan baytga kuchliroq faryod bilan bayon qiladi. Birinchi bayt oshiqning "junun

¹ Erkin Vohidov. Junun vodiysida / Alisher Navoiy. G'azallar. SHarhlar. Toshkent, 1991. 91-bet.

vodiysiga moyil” bo’lganini, ikkinchi dunyodan tamom yo’q bo’lib ketish tilagini ifoda qilsa, g’azal so’ngiga yaqin shoir bularning barchasidan o’ta ofatni qalamga oladi – bu ofat telba bo’lishdan ham, dunyodan benomu nishon ketishdan ham og’ir bir ofat. Bu – yoru diyordan judo bo’lish musibati”¹.

Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul esa g’azal zamiridagi haqiqiy (tagma’no)dan kelib chiqqan holda uni boshqacha talqin qiladi. “Bu g’azalda shoir o’zining sevimli qahramoni Majnunga izdosh”, – deb yozadi olim². Chunki “g’avg’oyi junung’a muftalo” Majnun “Hushumni junun yeli sovurdi” deya e’tirof qilgan. Gap shundaki, g’azaldagi lirik “men”ning aqlu hushi hali “junun yeli”dan butunlay sovrilmagan unda hozircha “junun vodiysig’a” mayl paydo bo’lgan. Uning “junun vodiysig’a moyil ko’rarmen joni zorimni”, - degan so’zlarin tinglab, moyillik sababini ham darhol anglaymiz. Demak, bu – jonning zoriqishidan tug’ilgan ostakdir. Ikkinchi misra zorlik shiddatiga toqat qila olmaslik darajasiga yetgan oshiqning tilagini ifodalaydi:

Tilarmen bir yo’li buzmoq buzulg’on ro’zgorimni.

Buzilganni yana buzmoqdan ne samara? “buzilg’on ro’zgor”ni bir yo’li tuzmoq mumkin emasmi? Yo’q, junun ma’rifati bunga o’rgatmaydi.

“Junun – mastlikda nihoyat, darveshlikda bidoyat erur. Junun shunday ogohlidururki, unda kishi o’zligidan bexabar bo’lmog’i kerak”, - deydi Sayyid Ja’far Sajjodiy. Junun – tasavvufda vahdat mayidan mastlikning nihoyatidir. Navoiyshunos olim Ibrohim Haqqul fikriga ko’ra, “Navoiy nazarda tutgan “junun vodiysi” darveshlikka daxldor. Chunki g’azalning birinchi baytida o’zlikdan kechmoq niyati ta’kidlangan, xolos”³.

G’azalning ikkinchi misrasidagi “*Tilarmen topmag’aylar to’tiyoliqqa g’uborimni*” degan gaplar ishq ahliga qaratilgan. Chunki shoirning jismi falakning zulmu adolatsizligidan xoki g’uborga aylangan.

¹ Erkin Vohidov. Junun vodiysida / Alisher Navoiy. G’azallar. Sharhlar. Toshkent, 1991. 90-bet.

² Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Toshkent, 2007. 156-bet.

³ Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Toshkent, 2007. 157-bet.

Navbatdagi baytda shoir tasavvufdagi ilohiy jamol timsoli – Nurning olamshumul qudratini ulug'laydi:

*Shak ermas partavi tushgach uyi ham, raxti ham kuymas,
Chu go'riston gadoyi sezmagay sham'i mazorimni.*

“Sham'i mozor” – jahondagi barcha narsani o'tga g'arq etuvchi samoviy porloqlikka nisbatan kichik bir yorug'lik ramzi. Biroq inson ruhi “sham”ga qiyoslanadigan bo'lsa, uning shu'lasini Haq nuriga singib ketishga qodir. “Go'riston gadoyi” – umumlashma obraz. SHoir unda inoni ixtiyorini “qazo” ilkiga topshirish sirlaridan bexabar g'ofillarga munosabatni izhor qilgan. Udashti fanoga ravona bo'lishni ko'zlagani uchun ham ixtiyorsiz. Keyingi uch baytda “o'lim”ga rizolik sabablari sharhlanadi. “Ashki gulgun”ning tugashi, “za'faroni yuz” bilangina qolinishi – bular haqiqiy oshiqqa xos kamolot belgilari. Bu holatga erishgan kishiga falak zulm o'tkazishi, ahli diyor g'animlik nazari bilan qarashi tabiiy. Majnun qismatini xotirlang. Uni kim tushundi? Deyarli hech kim. Odamlardagi gumrohlikni falak avj oldirmaganida Majnun dashtu sahrolarga bosh olib chiqib ketarmidi? Qattol falak hamisha ko'nglida “ruhi qudsiy” nuzul qilgan oshiqning “xazon birla bahorini” bexato ajratib bergan. Ular go'yoki, xazon farzandlari. Xazon yaprog'i yanglig' sarson-sargardonlik uchun dunyoga kelganday. SHoir yomon holi, tilingan bag'ir qoniga belangan yuzini ko'rgan kishining ko'ngli og'rishini e'tirof etsa-da, baribir yoru diyoridan qochishga qat'iy ahd qiladi:

*Diyorim ahli birla yordin boshimg'a yuz minnat,
Ne tong boshim olib ketsam, qo'yub yoru diyorimni.*

Qismat mayi achchiq va taxir degan gap bor. Bu boda soqiyi azal – Xudo tomonidan ato etiladi. Shuning uchun Navoiy o'sha soqiyga murojaat qilib, taqdir qadahiga “zahri qotil quy”, yana xumorimni tarqat, deydi:

*Hayotim bodasidin sargaronmen usru, ey soqiy,
Qadahg'a zahri qotil quy, dog'i daf' et xumorimni.*

Navoiyning nuqtai nazarida dunyodan kechish – “zahri qotil” ichib kun kechirishday gap. Bu achchiq zaharni sipqormaguncha, jahonni tark etib

bo'lmaydi. Tarki jahon qilmaguncha, tinim va xotirjamlik, qanoat va darveshlikka erishish mumkin emas:

*Jahon tarkini qilmay, chunki tinmoq mumkin ermastur,
Navoiy, qil meni ozod o'rtab yo'qu borimni.*

Oxirgi satrda iyhom san'ati ishlatilgan. Uni "Yo'qu borimni o'rtaydigan bir navo qilg'ilki, men butunlay ozod bo'lay", ma'nosida anglasa ham bo'ladi. Bu kuyning ijrochisi Xudodir. Bu ilohiy navo inson ruhini haqiqiy ozodlik maqomiga ko'taradi. Xuddi shu navo ishq ahlini junun vodiysiga chorlaydi:

Junun vodiysig'a moyil ko'rarmen joni zorimni...

Ijtimoiy muhitni tanqid – Navoiy uchun doimiy yo'ldosh mavzudir. Ilk g'azallarida tilga olingan bu mavzuni shoir butun ijodiy faoliyati davomida hamma janrdagi asarlarida ishlashni zarur, deb biladi va so'nggi asari – "Mahbub ul-qulub" da esa unga alohida e'tibor beradi. SHoir ijodida davr, ijtimoiy muhit, undagi tartib-qoidalar to'g'risida, jamiyatda hukmron bo'lgan adolatsizlik haqida ma'lumot beruvchi juda ko'p tanqidiy parchalar, satirik ruhdagi tasvirlar yuzaga keldi.

Navoiyning ulkan lirik merosida davrning muhim sotsial masalalarini bosh mavzu sifatida qamrab oluvchi maxsus g'azal va chistonlar, qit'a va ruboiylar anchagina. "Shoir ijodida sotsial mavzularga bag'ishlangan maxsus asarlar qatorida sof lirik g'azallar jismiga "qistirib" ketilgan, ularning ruhiga singdirilib yuborilgan tanqidiy motivlar ham tez-tez ko'zga tashlanadi"¹.

Haqiqatdan ham, mavjud ijtimoiy muhitdagi adolatsizlikni qoralash va fosh etish, zulm va zo'ravonlikni tanqid qilish Navoiyning ilk g'azallaridayoq turli poetik usullar bilan amalga oshiriladi. Tanqid, fosh etish, shikoyat va norozilik ko'rinishlari, uni o'quvchiga yetkazishi usullari xilma-xil bo'lib, asosan, lirik qahramonning ruhiy kechinmalari, his-tuyg'ulari, hayot va jamiyat hodisalariga munosabati va bahosida, intilish va orzularida namoyon bo'ladi.

Muallif obrazi va lirik qahramon (u qanday shaklda, qaysi obrazda namoyon bo'lmasin) har doim birlikni tashkil qiladi, lirik qahramon har vaqt

¹ Abdug'afurov A. Erk va ezgulik kuychilari. Toshkent, 1979. 4-bet.

muallif obrazini ham nazarda tutadi, uni ham ifodalaydi. Ravshanki, bu – lirik qahramon har doim muallif obrazining o'zidir, unga tengdir, degan gap emas. Lirik qahramon turli shakl va obrazlarda namoyon bo'lishi mumkin – ayrim g'azallarda muallifning kechinma oqimiga hech bir aralashmasligi ham mumkin, ammo bu asarda shoir shaxsi mutlaqo yo'qligini ko'rsatmaydi. Har bir g'azalda muallif ovozini eshitamiz, muallif, shoir “men”ining ma'lum bir tomonini ko'ramiz. Zero, asarning yozilishidan maqsad ham xuddi shudir. “She'riy asarda bevosita ko'zga tashlanmasada, lirik qahramonning qanday obrazda namoyon bo'lishidan qat'iy nazar, har bir konkret holatda muallif “men”i mavjuddir, chunki g'azalga ob'ekt bo'lgan hodisa, voqeaga nisbatan muallif pozitsiyasi ifodalanadi, ularga bo'lgan munosabati, bahosi namoyon bo'ladi. Navoiyning shayxlar haqidagi g'azallarini olaylik. Bu g'azallarda aldamchi, buzuqi, tekinxo'r din arboblarning obrazlari yaratilgan”¹.

Shoir obrazi bevosita muallifning voqeaga aralashgan baytlaridagina ko'zga tashlanib qolmay, balki shu mavzuning tanlanishida, uning tanqidiy fosh etish ruhida, obrazlarni chizish va yetkazish usulida, qo'llanilgan badiiy vositalarda va umuman, muallifning pozitsiyasi va bahosida ham namoyon bo'ladi.

Shuning uchun ham asosiy gap lirik g'azalda, shoir “men”ining bo'lishi yoki bo'lmasligi xususida emas, balki shoir obrazining namoyon bo'lish shakllari haqida borishi kerak.

Ba'zi g'azallarda mavzunining ishlanishida shoir obrazi unchalik ravshan ko'rinmasa, ba'zilarida ochiq ko'zga tashlanadi, voqeaga aralashadi, bevosita o'z nomidan harakat etadi, o'z kechinmalari, orzusi va munosabatini ifodalaydi. Bunday hol, ayniqsa, falsafiy-didaktik, ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi g'azallarda ko'proq ko'rinadi. Davr, ijtimoiy muhit tanqid qilingan g'azal yoki ayrim baytlarda ham shunday xususiyat mavjud. Bunday g'azal va baytlarda lirik qahramon hamma vaqt shoir obrazidir va u bevosita “men”i nomidan so'z

¹ Abdug'afurov A. Erk va ezgulik kuychilari. Toshkent, 1979. 5-bet.

yuritadi, ijtimoiy muhit, mavjud tuzum, undagi voqea-hodisalar haqida “o’z” mulohazalarini bayon etadi, ularni baholaydi. Bunday paytlarda lirik qahramon mavjud ijtimoiy muhit va undagi tartiblar to’g’risida, axloq normalari haqida, adolatsizlik va uning shaxsga, uning turmushiga ko’rsatayotgan salbiy oqibatlari haqida chuqur mulohaza yurituvchi, uning sabablarini izohlovchi mutafakkir sifatida gavdalanadi.

Boshqa mavzularda yozilgan “qistirma” baytlarning ko’pchiligi g’azalda lirik chekinish xarakterini olgan. Lirik chekinish muallif “men”ining voqeaga, tasvirga bevosita “aralashuvidir”,

Lirikada lirik chekinish xarakterini olgan bu baytlar g’azal tuzilishiga zo’rma-zo’raki kiritilgan emas – ular mazmuni to’la yoritishga xizmat qiladi, o’quvchi munosabatining shakllanishiga yordam beradi.

*Qilg’ali may bila gulgun yuzin ul no’shin lab,
Lolagun bo’ldi qo’yosh orazi kavkab-kavkab.*

Matlai bilan boshlanuvchi g’azaliga e’tibor beraylik: g’azalning lirik qahramoni oshiqdir. Uning yori shu qadar go’zalki, hatto Ajam va Arabni hasratda kuydirgan SHirin bila Layli hayron qoladi, quyosh uning labidan bo’sa olish paytda qiynaladi. Hatto oshiqning joni doimo yor madhini qiluvchi o’z og’ziga rashk etadi. Qisqasi, ma’shuqaning go’zalligi ham, lirik qahramonning chin oshiqligi ham shubhasiz. Ammo ular o’rtasida qandaydir to’siq bor: oshiq visolga erisha olmaydi, u o’z baxtini topa olmaydi... bu qanday g’ov? Sabab nimada? Bu o’rinda shoirning o’zi lirik chekinish orqali shu savollarga javob beradi, mazkur holatlarning sabablarini ochadi. Muallif “men”icha, bunda hech qanday g’ayritabiiylik yo’q. Chunki davrning, tuzumning o’zi shunaqa: dahrda umuman, shodu xurramlikni istash bekorchi ish, aksincha, unda shaxsni qiynovchi azob-uqubatlar hukmron: bu zamonda “talab birla topilmas maqsud”.

*Dahr aro ayshu nashot istasang, o’lgung mahrum,
Negakim, anda nasib o’lmadi juz ranju taab.*

Muallif bu bayt bilan visol, maqsad yo'lida azob chekayotgan lirik qahramon – oshiqqa murojaat qilayotgandek, uning shaxsiy baxtsizligini umumiy holat bilan hamohang ekanligini tushuntirayotgandek tuyuladi.

Chindan ham shoir yozganidek:

*CHun zamon ahli zamona rangin tutmoqdur zarur,
Dahr nofarjom uchun el holi nofarjomdur.*

Bu mazmun ikkinchi bir g'azalning quyidagi baytida yanada ravshanroq ifodalangan:

*Zamon ahli zamona rangi birla bevafodurlar,
Zamona ahlig'a go'yo zamon o'z fe'lin o'rgatmish.*

Umumiy xulosa ruhini olgan bu lirik chekinishlarda Navoiy bevosita o'z nomidan ijtimoiy muhit, davr ustidan hukm chiqarmoqda, undagi adolatsizlikni boricha qayd etmoqda.

Ijtimoiy muhit, davron hamda zamona ahlining yaramas belgilari tanqid qilingan g'azal va baytlarda asosan, bevosita shoir "men"ining namoyon bo'lishini juda ko'p misollarda ko'rish mumkin.

Navoiy asarlaridagi ushbu holat haqida gapirar ekan, adabiyotshunos olim A.Abdug'afurov shunday ta'kidlaydi: "Bu haqiqat, ayniqsa, Navoiyning ichki kechinmalari, orzu-umidlarini bayon etuvchi, uning davr, jamiyat, zamona ahli haqidagi mushohadalarini, tanqidiy munosabatlarini bevosita ifodalovchi maktublardagi ayrim holatlarni shunday g'azallar va baytlar bilan solishtirganda yaqqol ko'rinadi. Har ikki holatda ham biz mavjud tuzumdagi adolatsizlik va zo'ravonlikni, yaramas tartib-qoidalarni ayovsiz qoralovchi shoir obrazini ko'ramiz. Katta umumiylik mavjud bo'lgan bu tanqid ostida o'z davrining ilg'or farzandi bo'lgan shoirning jamiyat, hayot va sevgi haqidagi yuksak g'oyalari, orzu-umidlari bilan real buzuvchi ahvol, qoloq hayot o'rtasidagi ziddiyat yotadi. Xuddi shunigdek, dahr ahli faoliyatidan kuchli norozilik, tanqid va shikoyat

zaminida ham ular bilan shoir o'rtasidagi jiddiy kelishmovchilik, maqsad va intilishdagi katta tafovut turadi"¹.

Shoirning "Mahbub ul-qulub" asariga yozgan muqaddimasida o'zi haqida so'z yuritganligi shubhasiz. Muqaddimada "davrning buqalamunlig'idin" tortgan jabr-sitamlari to'g'risida so'zlaydi, "falakdinnotavonlig'" topganligini, "zamonning issiq-sovug'ini ko'rib, jahoning achchiq-chuchugini totgan"ligini bayon etadi.

Davr va undagi hukmron buzuvq atmosferaning shoirga qilgan adolatsizligi, uning boshiga solgan jabr-jafosi quyidagi ruboiyda. Ayniqsa, to'la ochilgan:

Gardun manga gah jafoyu dunluq qildi,

Baxtim kabi har ishta zaunliq qildi.

Gah kom sari rahnamunluq qildi,

Alqissa, base buqalamunliq qildi.

Ammo Navoiy mavjud ijtimoiy tuzumdagi haqsizlik, zo'raovnligni, davrning shaxsga qilayotgan azob-uqubatlarini, zamona ahlining firibgarligi, shafqatsizligini passiv qayd etish bilan cheklanmaydi. U bunday holatdan norozi ekanligini ochiqdan-ochiq qayd etadi. Bu jihatdan Navoiyning "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" nomli asaridagi quyidagi parcha juda xarakterlidir:

"...Dunyoki, qatig' durur garonborlig'i,

Qattig'roq aning ulusining yorlig'i!

Ko'prak nimakim, bo'lsa giriftorlig'i,

Ko'proq kelur el ollig'a dushvorlig'i.

Voy, dunyo shug'lining ibtilosidin! Va yuz ming voy, dunyo ahlining zulmu jafosidan, balki, malolat va izosidin! Oh, zamon jabru bedodidin! Nauzi billoh, abnoyi zamon qasdu ifsodidin!"

Bu nola, bu g'azab aralash faryod satrlari Navoiyning eng yaqin kishilaridan biri, o'z davrining ilg'or namoyandasi Sayyid Hasan Ardasher vafoti munosabati bilan bitilgan. To'g'ri, bunda shaxsiy dard, ruhiy hayajon va

¹ Abdug'afurov A. Erk va ezgulik kuychilari. Toshkent, 1979. 7-8 betlar.

iztirobning yurak faryodining bu qadar tug'yonli chiqishiga ta'siri bor. Ammo u Navoiyning muayyan fojea munosabati bilan qisqa vaqtli ruhiy holatinigina ifodalaydi, deb bo'lmaydi. Aniqrog'i, Sayyid Hasan Ardasherining o'limi shoir dilida yig'ilib qolgan, o'z intihosiga yetgan kechinmalarning yuzaga chiqishiga bir sabab, turtki bo'lgan.

Bu aslida, davrning butun azob-uqubatlarini, muhitning kishini bo'g'uvchi "fazilatlari"ni o'z yelkasida ko'targan, adolatsizlik va zo'ravonlikning, buzuqlik va pastkashlikning ta'qib-tazyiqini doimo his etib turishga majbur bo'lgan, zamona ahlining shafqatsizligi va beqarorligidan nihoyatda g'azablangan shoirning qalb nafrati, ularga qarshi ko'targan isyoni edi. Bu parchada shoirning o'sha ijtimoiy muhitga nisbatan tanqidiy munosabati tug'yon urmoqda.

Navoiy lirikasida mazmun jihatidan yuqoridagi parchalarga juda yaqin bo'lgan bayt, g'azallarga tez-tez duch kelamiz. Ularda ham ijtimoiy adolatsizlikni fosh etayotgan, unga kuchli norozilik bildirayotgan shoir obrazini ko'ramiz.

Ulardagi shoir "men"ining namoyon bo'lishini tushunishda "Munshaot"dan olingan quyidagi parcha xarakterlidir:

"Olamg'a har shiddat kelsa, - deb yozadi Navoiy, - chun ayturg'a bir yori g'amgusorim va ilyayimg'a har suubat yetsa, chun izhor qilurg'a bir rafiqi asrorim yo'q erdi. Ul shiddat va suubat mazmunidin biror bayt yoki matla' xayol qilur erdim va ko'ngulmni ul g'ussa va anduhdin xoli etar erdim, bu oz vaqtda ko'p nazm aytilg'an ermish va har nav' she'r va g'azal yig'ilg'on ermish". Bu parchadan ko'rinadiki, Navoiyning ko'pchilik "she'r va g'azallari" bevosita shoirning o'ziga yuzlangan "shiddat va suubat mazmunining" ifodasi, "ko'nguldagi g'ussa va anduhni" bayon etish vositasi bo'lgan. Bunday asarlarda, shubhasiz, shoir obrazi yetakchi o'ringa ko'tarilgan, voqea-hodisalarga nisbatan o'z nuqtai nazari, mulohazalari birinchi o'ringa chiqqan. Zero, "Badoye' ul-bidoya"ga berilgan debochada shoirning o'zi yana shunday yozadi:

Ko'nglimda ne ma'ni o'lsa erdi paydo,

Til aylar edi nazm libosida ado.

Shuning uchun ham Navoiy ba'zan ruhiy holatini yoki biror masalaga bo'lgan munosabatini bayon etishda qachonlardir yozgan g'azallariga murojaat etadi. Ulardan parchalar keltiradi. Misollarga murojaat etaylik. "Badoye' ul-vasat"dan "Ko'rmadim" radifli g'azal o'rin olgan. G'azal qahramoni zamona ahlida vafo yo'qligidan, odamiylik, yaxshilikni bu davrda unutilganligidan shikoyat qiladi. Lirik qahramon g'azalda o'z odilligi, vafodorligi uchun, chin oshiqligi uchun azob tortayotgan shaxs sifatida gavdalanadi. U eng yaxshi insoniy fazilatlarga ega: u kishilarga yaxshilik qiladi, ular haqida qayg'uradi, ammo buning evaziga son-sanoqsiz dardu balolarga giriftor biladi. G'azal zaminida ana shunday adolatsizlikka qarshi lirik qahramonning chuqur noroziligi yotadi:

*Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko'rmadim,
Ko'rguzub yuz mehr, mingdardu balosin ko'rmadim.*

*Kimga boshimni fido qildimkim boshim qasdiga,
Har tarafdin yuz tuman tig'i jafosin ko'rmadim.*

*Kimga ko'nglum ayladi mehru muhabbat foshkim,
Har vafoga yuz jafo, oning jazosin ko'rmadim.*

*Kimga jonimni asir ettimki – jonim qatlig'a,
G'ayr sori xulqu lutfi jon fizosin ko'rmadim.*

*Kimga soldim ko'z qaroyu oqini ishq ichrakim,
Qon aro pinhon ko'zum oqu qarosin ko'rmadim.*

Navoiy "Mahbub ul-qulub"da mana shu g'azalning matlaini o'z munosabatini bildiruvchi bayt sifatida aynan keltiradi. Unga o'zining dahr ahliga berayotgan bahosining uzviy bir qismi deb qaraydi:

“...Har kimgakim, bir vafo ko’rguzdum, yuz bevafo’lig’ ko’rmaguncha qutulmadim va har kim bilakim bir mehru muhabbat oyini tuzdim - ming javru mazallat tortmog’uncha xalos bo’lmadim. Bayt:

Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko’rmadim,

Ko’rguzub yuz mehr, mingdardu balosin ko’rmadim.

Davr bevafo’lari javridin dod va dahr behayolari zulmidin fig’onu faryod! To olam binosidur bu o’tqa hech kishi mencha o’rtanmaydur, to bevafo’liq ibtidosidur, bu yoling’a hech kim mendek churkanmaydur. Zamon ahli bevafo’lig’idin ko’ksunga tugalardurkim, har qaysig’a raqam uray desam, Ayyub sabri anga vafo etmas va qalam suray desam, nuh umrida tamomg’a yetmas...”

Yuqorida keltirilgan g’azalning ruhi va mazmunini eslatuvchi bu parcha shu tipdagi g’azallarda lirik qahramon shoir “men”ini ifodalashini isbotlovchi dalil bo’la oladi. Navoiyning adolatsizlikni fosh etuvchi, zamona ahli faoliyatidagi pastkashlikni qoralovchi g’azallari aniqlilik va realistik xarakter kasb etadi. Shoir bu xil asarlarida hayotga yanada yaqinlashadi hamda real muhitni ob’ekt qilib oladi, jamiyat va kishilar o’rtasidagi muayyan holatlarni tasvirlaydi, aniq illatlarni inkor etadi.

Navoiy o’z davridagi ilg’or ijtimoiy kuchlarning eng yorqin va yetuk vakili sifatida maydonga chiqqan, faoliyat ko’rsatgan va o’z “men”i orqali avvalo ana shu progressiv kuchlar dunyoqarashini, intilishi va bahosini ifodalagan. Navoiy lirikasining, jumladan, biz nazarda tutayotgan g’azal baytlarining katta ijtimoiy mohiyat kasb etishi ham ana shu bilan bog’liqdir.

II.2. Alisher Navoiyning shaxsiy hayoti bilan bog'langan avtobiografik g'azallar

Alisher Navoiyning bir qancha avtobiografik g'azallari qarilik chog'larida, soqoliga oq oralagan paytlarda yozilgan. Bu xil g'azallarda shoir qarilikdan quvvatsizlikdan shikoyat qiladi va o'zining keksalik kayfiyatlarini aks ettiradi.

Masalan, shoir bir g'azalida shunday deydi:

*Sochu soqol xo'b oqardi, to'kila boshladi tish,
Safar yarog'ini qilki, tushdi boshingga tashvish.*

Umuman olganda, Navoiyning shaxsiy hayoti bilan bog'langan g'azallarining ichki tematikasi ham boy va xilma-xil bo'lib, ular ko'p vaqt realistik xarakterga ega. Shoir bu she'rlarida an'anaviy romantik obrazlarni kam qo'llaydi. Ularning yozilish uslubi hayotiy va realistikdir. Bu asarlarda shoir bor haqiqatni o'z jonli tili bilan, kitobxonga yonma-yon turganday, tasvirlab beradi.

Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" tarkibiga kiritgan g'azallarida boshqa mavzular qatorida o'z shaxsiy hayotidagi ayrim voqealarning badiiy tasviri ham ko'zga tashlanadi. Bu o'rinda biz uning sarig' kasali, ko'z og'rigi bilan xastalanganligi, tishlarining to'kilgani, ko'zilarining xiralashganiga oid ishoralar mavjud bo'lgan g'azallarni nazarda tutmoqdamiz. Jumladan, "Tishlarimdin ikki dandonaki charx ayladi kam"¹ misrasi bilan boshlanadigan hamda:

Orazing mushtoqidur bu ko'zki, bo'lmish dardmand,

Garchi bordur dardlig' ko'zga yorug'liqtin gazand,² -

bayti bilan boshlanadigan g'azallar aytilganlarga misol bo'la oladi.

Alisher Navoiyning "Tishlarimdin" deb boshlanadigan g'azali keksalik davrining mahsuli bo'lib, unda ikkita tishining to'kilganidan so'z yuritilgan. G'azalda shoirning oddiy inson sifatidagi kechinmalari o'z ifodasini topgan:

¹ Alisher Navoiy. MAT. 4-tom. Toshkent, 305-bet.

² Alisher Navoiy. MAT. 3-tom. Toshkent, 115-116 betlar.

tishlarining to'kilishini, ya'ni tish o'rnining bo'shab qolishi bu – ajalning kirishiyu jonning chiqishga yo'ldir, tarzida izohlaydi shoir. Buning ustiga:

Yo'qki tish sini sitam bo'ldiyu bas, ko'zda dog'i

Qolmadi nuri ani dog'i degil ayni adam, -

deb shikoyat qiladi.

Ikkinchi g'azalda esa ko'z og'rig'idan chekkan iztiroblari o'z ifodasini topgan. Shunisi muhimki, shoir ko'zining og'riganini tasvirlar ekan, uning qizargani, doru qo'yganda kuydirgani, ko'zlarini bog'lab qo'yganini ("bog'lamishdur chashmband") hayotiy va ishonarli tarzda qalamga olgan. Bunday tasvirlardan Alisher Navoiyning o'sha jarayondagi kayfiyati, ruhiy kechinmalarini anglash qiyin emas.

906 hijriy-qamariy yilning jumodi us-soniy oyi boshlarida (milodiy 1500 yilning 28 dekabri) jarchilar Hirot aholisiga muhim xabarni e'lon qildilar: Astrobodda isyon ko'targan o'g'li Muhammad Husayn Mirzo ustiga qo'shin tortgan Husayn Boyqaro u bilan yarashib, Hirotga qaytib kelmoqda... Poytaxtni qo'riqlash topshirilgan Amir Muboriziddin Muhammad Vali va Alisher Navoiy a'yonlar hamrohligida shohni kutib olish uchun shahardan tashqariga chiqdilar. Muhammad Valibek rabotiga kelganlarida shoh yaqinlashib qolganini xabar qildilar. Navoiy anchagina xasta, o'zini yomon his qilmoqda edi. Shoh muhofasi yaqinlashgach, u otidan tushdi-yu, lekin yura olmadi. Tinimsiz ijod mashaqqatlaridan, davlat tashvishlaridan toliqqan vujudi o'ziga bo'ysunmay qo'ydi. Xoja Abdulloh va Xondamir ko'magida Boyqaro tomon yurdi. Goh cheksiz muruvvatlar ko'rsatgan, gohida esa aziyatlar yetkazgan do'sti – Husayn Boyqaro og'ushida hushidan ketdi. Shoirni shohning muhofasiga solib, zudlik bilan Hirotga olib keldilar. Ammo tabiblarning dori-darmonlari foyda bermadi. Jumodi us-soniy oyining o'n ikkinchisida (milodiy 1501 yilning 3 yanvari), yakshanba kuni Alisher Navoiy manguga ko'z yumdi. Bu haqda «Boburnoma»da shunday satrlarni o'qiyimiz: «...Sulton Husayn Mirzo Astrobod cherikidin yong'onda (qaytganda) istiqbolg'a keldi, mirzo bila ko'rushub qo'ppuncha bir holati bo'ldi, qo'polmadi, ko'tarib eltdilar, tabiblar aslo tashxis

qila olmadilar. Tonglasig'a-o'q Tengri rahmatig'a bordi. Bir bayti hasbi hol voqe' bo'lubtur:

*Bu dard ilaki o'larmen, maraz chu zohir emas,
Tabiblar bu balog'a ne chora qilg'oylar?».*

Asrlar bo'yi shu savol ochiq qolib keldi: buyuk shoirning o'limiga qanday kasallik sabab bo'ldi ekan? Alisher Navoiyning hayoti va ijodi xususida yozma hamda og'zaki ma'lumotlar anchagina. Zamondoshlari, shogirdlari va muarrixlar buyuk san'atkor asarlarining sehrlil jozibasini, yuksak badiiyatini tahlil etish bilan birga shoirning xislatlari, hayotidagi muhim voqealar to'g'risida ham qimmatli ma'lumotlar qoldirganlar. Chunki Navoiy daho ijodkorgina bo'lib qolmay, shaxs sifatida ham o'zi yashagan davr ijtimoiy-madaniy muhitiga katta ta'sir ko'rsatgan, yuksak insoniy fazilatlarini bilan ijod ahliga o'rnak bo'lgan edi. Bizgacha yetib kelgan manbalarda uning shaxsiyatiga katta ahamiyat berilishining boisi ham shunda. Biroq shoirning ulkan tarixiy voqealar, murakkab ziddiyatlar bilan to'la mashaqqatli hayoti mukammal o'rganilgan, deb bo'lmaydi. Buyuk mutafakkir umr daftarining noma'lum sahifalarini aniqlash jarayoni davom etmoqda. Zero, bu – shoir siymosini yorqinroq tasavvur etish, hayotining turli bosqichlarida yaratilgan asarlarining mohiyatini yana ham teranroq anglashga yordam beradi. Alisher Navoiy umrining so'nggi yillarida og'ir kasalga duchor bo'lgani, kuch-quvvati ketib, nochor ahvolda qolganidan shikoyat qilib, “Xazoyin ul-maoniy”ning debochasida shunday yozadi:

“Qulluq arzadosht ulkim, bu bandag'a yosh ulg'oyg'on chog'da za'fe (kasallik) yuzlandi. Va ul za'f rishtasi rishtadek za'fliq paykarimg'a andoq chirmondiki, ul quyoshdek zamirg'a (Husayn Boyqaroga) ravshandur. Holo mizojim istiqomatdin munharif va badanimda necha maraz muxtalifdur. Va atibbo (tabiblar) ilojidin ojiz va ma'zul va ahibbo (do'stlar) mizojimdin mutaajjib va malul, dimog'im parishonlig'idin so'zum nomarbut (bir-biriga bog'lanmagan) va xayolim oshuftalig'idin holim nomazbut, bag'rim qizig'onidin jismimda humoy lozim va ko'nglum ozg'onidin boshim aylanmog'i va ko'zum qarormog'i doyim...” Sundan so'ng shoir bemadorligi tufayli otga minib-

tushishida o'zini ikki kishi suyashini, hassasiz yurolmay qolganini bayon qiladi.

Bu haqda iztirobli misralar bitadi:

*Garchi tog'din og'ir etti dardu ozorimni za'f,
Lek xastin ham yengil qildi tani zorimni za'f.*

*Bilmagil, holimni gar ahbob so'rmaslar, ajab,
Kim qilibtur tonimasdek jismi bemorimni za'f.*

Qizig'i shundaki, muarrixlar va zamondoshlarining asarlarida, xalaflarining bizga ma'lum qo'lyozmalarida bu kasallik haqida hech narsa deyilmagan. Atoqli adabiyotshunos olim, rahmatli Izzat Sultonov ko'p muammolarga shoir asarlarining o'zidan javob topish mumkin, deb yozadi. Chindan ham u o'z asarlarida bu haqda biror ma'lumot bermaganmikan? Axir shoir g'azallari o'ziga xos sharhi hol-ku! Yuksak badiiyat durdonalari bo'lgan bu g'azallar shoir hayotidagi quvonch va qayg'u, shodlik va tushkunlik onlarining darakchilari emasmi? "Debocha"ga murojaat etaylik: "Bir hamdard rafiqim yo'q erdikim, dardimdin shammai izhor qilg'aymen, biror bayt birla ul hol mazmunin nazm qilib, ko'nglumni xoli qilur erdim va jununim shiddati g'alayonida har oshubkim ollimg'a kelur erdi, chun bir hamzabon mushfiqim yo'q erdiki, maxfiy o'tumni oshkor etgaymen, biror matla' bila u ma'nini ado qilib, qattig' holimni sharh etar erdim. Bu vosita bila ko'nglum o'tig'a orome va ishqim bedodi nohamvorlig'ig'a andome hosil bo'lur erdi". Bu e'tiroflar shoirning Har bir asari ma'lum darajada sharhi hol ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi. Shunday ekan, u o'z g'azallarida kasalligi haqida ham so'z yuritgan bo'lishi kerak.

«Favoyid ul-kibar» devonidagi bir g'azal masalani ancha oydinlashtiradi.

G'azalni to'laligicha keltiramiz:

*Sorig' og'rig' bo'ldum, ey soqiy, xazoni hajr aro,
Qoni asfar mayki, bor har qatrasi bir kahrabo.*

*Yuzu jismimdur sorig' barge qurug'on shox uza,
Shoxu bargekim qurub sorg'orsa, kim ko'rmush davvo?*

*Ne marazdur buki, bir gulrux sharori ishqidin,
Bo'ldi sorig' lola ko'zum oqiyu dog'i qaro.*

*Sud emish, ko'z tushsa asfar jinsi sori, vah, qani
Sarvinozimkim, sorig' gul bargidin kiymish qabo.*

*Sorg'orib qoldim havodis kojig'a hijron kuni,
Bir sorig' qushdekki, kunduz qolg'ay ul qushlar aro.*

*Shom ila subh ar sorig' og'rig' emaslar, bas nedur
Tun sochin yoyib, quyosh yirtib yuzin, tutmoq azo?*

*Dardi tufroqqa nihon etdi Navoiy jismini,
Topibon bir shusha oltin, dafn qilg'ondek gado.*

Mazmuni: ey, soqiy, hijron xazoni ichra sariq kasaliga duchor bo'ldim, har qatrası kahrabo bo'lgan sariq may keltir. Jismim qurigan shoxga, yuzim esa sariq yaproqqa o'xshaydi. Daraxtning shoxi qurib, bargi sarg'aysa, buning chorasi bormi? Ne dardki, bir gul yuzli ishqı o'tidin ko'zimning oqu qarosi sariq lolaga aylandi. Sariq rangli narsaga qaramoq foydali emish, qani endi, sarvinozim sariq gul bargidan libos kiyib kelsa. Hijron kunida hodisalar zarbasidan sarg'ayib qoldim, xuddi kunduz kuni boshqa qushlar orasida qolgan ukkidayman. Shom bilan tong sariq kasal bo'lmagan-ku, nega tun sochini yoyib, quyosh yuzini yirtib aza tutadi? Gado shusha (yombi) oltin topib olib, yerga ko'mganidek, dard ham Navoiy jismini tuproqqa yashirdi.

G'azalni o'qir ekanmiz, zamona nosozliklariyu jamiyat muammolaridan, hijron azoblaridan, ijod mashaqqatlariyu kasallik iztiroblaridan toliqqan shoirning ma'yus qiyofasi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. G'azal yaxlit kompozitsiyaga ega. Holat tasviri baytma-bayt rivojlanib, maqta'da chiroyli o'xshatish bilan yakunlanadi. G'azalning birinchi baytida kahraboning tilga olinishi ham bejiz emas. Chunki o'sha davrda kahrabo sariq kasaliga davo, degan tushuncha bo'lgan. «Har bir qatrası bir kahrabo» bo'lgan may esa shoir dardiga davo bo'lishi kerakdek edi. Navoiyning sariq kasal – yaraqon bilan

og'rganini adabiyotshunos olim Natan Mallayev ham «Navoiy ijodiyotining xalqchil negizi» kitobida qayd etib o'tgan. Darhaqiqat, Navoiy asarlarida ko'pgina o'rinlarda uchraydigan sariq yuzlilik, za'faronlik haqidagi so'zlar faqat she'riy tashbeh sifatida, ko'chma ma'noda qo'llanilmaganligi aniq. “Sorig' og'rig' bo'ldum...” deb boshlanuvchi yuqorida keltirilgan g'azal va “Favoyid ul-kibar” devonidagi ko'plab misollar shoirning yaraqon bilan og'rganini tasdiqlaydi.

“Navodir ush-shabob” devoniga kiritilgan mana bu g'azal ham shoirning kasallik davrida bitilganga o'xshaydi:

*Sorg'oribtur lolaro'yim, ranji bo'lmish qotig',
Lola bu yil gulshani umrimda ochilmish sorig'.*

*Ko'p osig' umrum bahori mevasidin istadim,
Mevaga yetmay xazon bo'ldi bahorim, ne osig'?.*

*Ey, Masiho, urma dam ul ko'zda sufrat daf'ig'a,
Kahrabo keltir quyoshdin, hut burjiddin bolig'.*

*Vasfi ul ko'zning qarolig' birla erdi voykim,
Emdi sorig'liqqa mansub etmish oni xastalig'...*

Navoiy o'z ahvolini g'azallarida bayon etib, “ko'ngil o'tiga orom” istar ekan, har safar yangi obrazlar, jozibali tashbehlar topadi. Ularda shoir o'z holatini tasvirleydi, do'stlari va mahubasi holidan xabar olmayotganidan noliydi, kasallik iztiroblarini aks ettiradi. Bu g'azallarda xalq tabobati va o'sha davrdagi urf-odatlariga oid qiziqarli ma'lumotlar bor. Jumladan, baliqqa tikilish ko'zdagi sariqlikni oladi, degan tasavvur bo'lgan. Qizig'i shundaki, bunday qarash hozirgacha saqlanib qolgan. Shu ma'noda, “Hayrat ul-abror” dostonidagi quyidagi baytlar diqqatga sazovor:

*Nargis arilmay marazidin ariq,
Ko'zlari ayni yaraqondin sariq.*

*Ko'z tikibon suvg'au rangi sinib,
Sabzani suv ichra baliq sog'inib...*

Suv bo'yida o'sayotgan nargis ko'zlari sariq kasalidan sarg'aygan, suv ichidagi o'tlarni baliqqa o'xshatib, intqlik bilan tikilayotgan insonga qiyoslanadi. Bunday kasallikni boshdan kechirgan odamgina bemor holatini bu shaklda aniq tasvirlay olishi mumkin. Bugungi tibbiyotdan bizga ma'lumki, sariq kasali – gepatit o'z vaqtida davolanmasa, jigarda yomon asorat qoldiradi. Keyinchalik u sirrozga, ya'ni jigar qurishiga aylanishi mumkin. Navoiy yashagan davrda tabobatning ahvoli hamda shoirning keksaygan vujudini hisobga olsak, bu kasallikning oqibatlari yanada aniq bo'lib qoladi. Shoirning o'limini tezlashtirgan, horg'in vujudini asta-sekin yemirib borgan dard ham sariq kasalining asoratlari bo'lganligi ehtimoldan uzoq emas. Xo'sh, Navoiy bu kasallik bilan qachon og'rigan? Taxminan bu 1492-95 yillar oralig'ida ro'y bergan. Shoir o'z kasalligi haqida dastlab “Xazoyin ul-maoniy” debochasida so'z ochadi. Bu devonni tuzishga esa 1492-yili kirishilgan. Ana shu debochada yana quyidagi arzi holni o'qiyimiz: “Agarchi marazimg'a (kasalimga) sihat umidi paydo bo'lubtur, ammo hanuz g'izo (ovqat) bila sharbatkim ichilur, yeyilur, misqol tarozusi bila tortilur va tongdin aqshomg'acha soat shishasiga ko'z tikilur, agarchi za'fimg'a quvvat imkoni zohir bo'lubtur, ammo hanuz buzug' koshonamdin chiqarg'a qo'pmaq tilasam, osilg'on u bori ankabut (o'rgumchak) torlari dastgirim bo'lub madad yetkurmaguncha, tebranmakka tobu tavon va harakatg'a maqdur, balki imkon yo'qtur...” Bu mubolag'ali tashbehlar orqali yorqin manzara yaratilgan. Unda kasallik shoirning salomatligiga jiddiy putur yetkazganligini anglash qiyin emas. Navoiy keksa vujudidagi bu xastalikning oqibati nima bilan tugashini yaxshi bilar edi. Shuning uchun ham qalbini achchiq armon kemirardi: nazarida qilgan ishlari hali oz, o'ylagan rejaları, orzulari esa behisob. Shu daqiqadan boshlab u umrining har bir soatidan, har bir soniyasidan unumli foydalanishga kirishdi, oshiqib yashadi, ko'p yangi g'azallar bitdi. “Xazoyin ul-maoniy”ning to'rt devonini jamladi,

“Nasoyim ul-muhabbat”, “Lison ut-tayr”, “Muhokamat ul-lug’atayn”, “Mahbub ul-qulub” kabi bebaho asarlarini yaratdi. Buyuk ijodkor va mutafakkir o’zining avlodlar oldidagi “navosiz ulusning navobaxshi” bo’lishdek yuksak burchini, turkiy tildagi adabiyotni yangi yuksakliklarga ko’tarish vazifasini bajarishga oshiqar edi.

Navoiyning juda ko’p asarlari uning hayoti va faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlarni beradi. Ana shunday asarlaridan biri Sayyid Hasan Ardasherga yo’llangan she’riy maktub – Masnaviydir. Navoiyning ilk yirik asarlaridan biri, unga ota va pir o’rnida bo’lgan Sayyid Hasan Ardasherga Samarqanddan yo’llangan maktubi ham o’ziga xos sharhi hol hisoblanadi. Ma’lumki, Xurosonda Abusaid hukmronligi davrida shoir Hirotdan Samarqandga ketishga majbur bo’lgan edi. Chunki bu podshoh uning iste’dodini qadrlamadi, o’z raqibi - Husayn Boyqaroning do’sti bo’lgani uchunmi, uni ko’p yoqtirmas edi. Navoiy Husayn Boyqaro taxtni egallaganidan keyin, ya’ni 1469 yili Samarqanddan qaytdi. Yuqorida zikr etilgan she’riy maktubida shoir Hirotdan ketishi sabablarini birma-bir sanab o’tadi. Shular qatorida o’zining tasavvufga bo’lgan ishtiyoqini, bu yo’lda bir «murshidi komil», ya’ni pir topolmaganini afsus ila qayd etib, yozadi:

Menikim bu savdo nazor ayladi,

Havas ilgida beqaror ayladi...

Urarmen qadam toki borg’uncha gom,

Ki bo’lg’ay muyassar menga ushbu kom.

Agar bo’lsa bu yo’lda umrum talaf,

Chu bu yo’ldadir ul Ham erur sharaf.

Ilohiy ishq sirlarini puxta egallashga ana shunday azm etgan Navoiy Hirotdan qaytganidan so’ng buyuk mutafakkir shoir, naqshbandiylik silsilasining mashhur vakili Abdurahmon Jomiy siymosida o’zi orzulagan «murshidi komil»ni topadi. Ma’lumki, tasavvuf olamiga qadam qo’yadigan har bir kishiga

bu sohaning bilimdoni bo'lgan pir ustozlik va rahnamolik qilishi zarur. Jomiy Navoiy uchun hamfikir va hamkor do'stgina emas, ana shunday pir ham bo'ldi. «Hayrat ul-abror»da u haqida mana bunday ta'rifni o'qiymiz:

Ulki bukun qutbi tariqatdur ul,

Koshifi asrori Haqiqatdur ul.

Ko'ksi haqoyiq duri ganjinasi,

Ko'ngli maoniy yuzi oyinasi.

Oliy anga yetti falakdin mahal,

Etti falak mushkili ollida hal...

Ulug' alloma Maqsud SHayxzoda «Navoiyning lirik qahramoni haqida» maqolasida Jomiy shunday ta'riflaydi: «Hirotdoirlarida XV asrning ikkinchi yarmida Abdurahmon Jomiy boshliq naqshbandiylik jamoasi juda zo'r obro'ga ega edi. O'zini falsafa va umuman ma'naviyatga aloqador deb bilgan va yoxud shunday ko'rinishni xohlagan har bir kishi (aksariyat «orif»lar, ya'ni ziyolilar) o'zlarini sufiylikdan xabardor, balki «mutasavvif» (sufinamo) qilib ko'rsatish bilan, butun Sharqda juda ulug' shuhrat egasi bo'lgan Abdurahmon Jomiyga «pirim» deb qo'l berish bilan faxrlangan edilar... Bu to'garak ko'pincha falsafiy, adabiy munozara va suhbatlar uchun klub o'rnini bosar edi. Navoiy o'zi ham Jomiyga qo'l berib, unga muridlikni qabul qilgan».

Navoiy Jomiy yordamida o'zidan ilgari o'tgan tasavvuf shayxlarining mashhur asarlari bilan tanishadi, maxsus istilohot, ramz va ishoratlar sirini o'rganadi. Forsiyda bitilgan asarlariga va tasavvufning panteistik ta'limoti singdirilgan «Lison ut-tayr» dostoniga «Foniy» taxallusi qo'yilishi ham bejiz emas. Foniy bo'lish, Haq yo'lida o'zligidan kechish – sufiylikning eng muhim shartlaridan biri. Mana bu baytda ana shu fikr o'z ifodasini topgan:

To taning avji Hayot ustidadir xok bo'l,

Istasangkim, avj tutqaysen taning bo'lganda xok.

UMUMIY XULOSALAR

Navoiy lirik merosini o'rganish, uning asosiy tamoyillari va yo'nalishlarini yoritish, shoirning avtobiografik xarakterdagi g'azallarni o'rganish masalasiga bag'ishlangan ushbu bitiruv malakaviy ishi yuzasidan olib borilgan kuzatishlar shoir ijodini o'rganish va uni ommalashtirish shoir tiriklik davridayoq boshlanganini ko'rsatdi. Biz tadqiqot asosini shoirning avtobiografik g'azallarini o'rganishga qaratdik. Kuzatishlarga tayangan holda quyidagicha umumiy xulosalarga kelish mumkin:

1. Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish shoir hayotligidayoq boshlangan edi. Bu xayrli ishni birinchi bo'lib Abdurahmon Jomiy boshlab bergan. Biroq Navoiyning boy adabiy merosini o'rganishga hamma davr o'z qiziqishlari, imkoniyatidan kelib chiqib yondashgan. Masalan, XV asr va XVI asr boshlarida Navoiy tarjimayi holini yaratishga, asarlarini qo'lyozma holida ko'chirish va ko'paytirishga ko'proq ahamiyat berilgan bo'lsa, keyinchalik uning asarlariga maxsus lug'atlar tuzish birinchi o'ringa chiqa boshlagan. Bunga To'le' Imoniyning "Badoye' ul-lug'at", noma'lum muallifning "Abushqa", Mirzo Mehdixonning "Sangloh" kabi lug'atlari yaqqol misol bo'la oladi.

2. Navoiy lirik she'rlarining xalq orasida naqadar tez yoyilganligini shunday ham bilish mumkinki, shoir 24-25 yoshlik chog'larida uning bir qancha she'rlari she'riyat muxlislari tomonidan to'planib, maxsus devon holiga keltirilgan. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, Navoiy lirikasi haqidagi dastlabki fikrlar uning hayotlik paytida bayon qilingan va ularda shoir lirik merosining mohiyati ixcham, ammo mukammal baholangan.

3. Alisher Navoiyning avtobiografik xarakterdagi she'rlarida uning davrga, atrofni qurshab turgan muhitga va kishilarga munosabati ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Shu bilan birga, shoir an'anaviy mavzulardagi she'rlarining ayrimlarida, goh baytlarning orasida, goh she'r oxirlarida, goh lirik chekinish shaklida, goh didaktik shaklda, goh biron munosabat bilan o'z

dunyoqarashiga doir fikr va mulohazalarini bir misrada yoki bir baytda ustalik bilan ifodalab keta olgan. Bunday jihatlarni Navoiy lirikasini sistemali ravishda kuzatish va har qaysi she'ning asosiy mazmuni bilan tanishib borish jarayonida kuzatish mumkin.

4. Mavjud ijtimoiy muhitdagi adolatsizlikni qoralash va fosh etish, zulm va zo'ravonlikni tanqid qilish Navoiyning ilk g'azallaridayoq turli poetik usullar bilan amalga oshiriladi. Tanqid, fosh etish, shikoyat va norozilik ko'rinishlari, uni o'quvchiga yetkazishi usullari xilma-xil bo'lib, asosan, lirik qahramonning ruhiy kechinmalari, his-tuyg'ulari, hayot va jamiyat hodisalariga munosabati va bahosida, intilish va orzularida namoyon bo'ladi.

5. Navoiy o'z davridagi ilg'or ijtimoiy kuchlarning eng yorqin va yetuk vakili sifatida maydonga chiqqan, faoliyat ko'rsatgan va o'z "men"i orqali avvalo ana shu progressiv kuchlar dunyoqarashini, intilishi va bahosini ifodalagan. Navoiy lirikasining, jumladan, biz nazarda tutayotgan g'azal baytlarining katta ijtimoiy mohiyat kasb etishi ham ana shu bilan bog'liqdir.

6. Navoiyning shaxsiy hayoti bilan bog'langan g'azallarining ichki tematikasi ham boy va xilma-xil bo'lib, ular ko'p vaqt realistik xarakterga ega. Shoir bu she'rlarida an'anaviy romantik obrazlarni kam qo'llaydi. Ularning yozilish uslubi hayotiy va realistikdir. Bu asarlarda shoir bor haqiqatni o'z jonli tili bilan, kitobxonga yonma-yon turganday, tasvirlab beradi.

7. Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" tarkibiga kiritgan g'azallarida boshqa mavzular qatorida o'z shaxsiy hayotidagi ayrim voqealarning badiiy tasviri ham ko'zga tashlanadi. Bu o'rinda biz uning sarig' kasali, ko'z og'rigi bilan xastalanganligi, tishlarining to'kilgani, ko'zilarining xiralashganiga oid ishoralar mavjud bo'lgan g'azallarni nazarda tutmoqdamiz. Shuning uchun ham ishda shoirning ana shunday ma'lumotlarga ega bo'lgan g'azallarini ma'lum ma'noda tahlil qilishiga harakat qildik.

8. Alisher Navoiy she'riyati san'atkorlarning buyuk maktabi. Uning ijod tajribalariga tayanib adabiyot taraqqiyoti haqida mulohaza yuritish yoki "Shoir kim, uning asosiy hunari nima?",- degan so'roqqa aniq javob topish mumkin. Bu

haqida fikr yuritar ekan adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul shunday deydi: “Men Navoiy yashab, ijod qilgan davrni goho o’zimcha xayolan tasavvur aylab, Hazrat she’riyatning o’quvchilari, muxlislarini ko’z oldimga keltirishga urinaman. Ular kimlar? Eng avvalo, shoirlar, ijodkorlar – go’zallik va she’riyatning sir-asrorini ham, qadr-qimmatini ham anglay oladigan kishilar. Keyin ilm ahli – Navoiyga olimlarning- shoiri, shoirlarning-olimi deb qaragan, Navoiyni ilm-fanning tolmas muhofizi, buyuk ma’rifatparvar o’laroq e’zozlagan olimu ulamolar. Yana bir toifa: Navoiy asarlarida falsafaning eng murakkab, eng dolzarb muammolari she’r tili ila go’zal talqin qilinishiga tan bergan faylasuflar”¹.

Xullas, Alisher Navoiy she’riyatidan bahramandlik ko’ngil ehtiyoji bo’lib qolgan musavvirlar, mug’anniyu hofizlar, davlat va hokimiyat sohiblari, haq yo’lchilari- darvesh, faqir, orif va oshiqlar, madrasa talabalari, din va shariat vakillari, kosiblar, hunarmandlar, dehqonlar.

Bitiruv malakaviy ishi davomida olib borilgan kuzatishlar va ilgari surilgan fikr-mulohazalar ushbu mavzuda kengroq tadqiqot olib borish imkonini cheklab qo’ymaydi. Ushbu mavzuda yozilishi mumkin bo’lgan yirik tadqiqotlar uchun tezis vazifasini o’tashi mumkin.

¹ Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Toshkent, 2007. 11-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yenglimas kuch. Toshkent, 2008. 176 bet
2. Alisher Navoiy. MAT. 1-tom. Toshkent, 1987. 440 bet
3. Alisher Navoiy. MAT. 3-tom. Toshkent, 1988. 786 bet
4. Alisher Navoiy. MAT. 7-tom. Toshkent, 1991. 392 bet
5. Alisher Navoiy. MAT. 9-tom. Toshkent, 1991. 320 bet
6. Alisher Navoiy. MAT. 15-tom. Toshkent, 1991. 328 bet
7. Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. Toshkent, 2000. 336 bet
8. Ibrohim Haqqul. Zanjirband sher qoshida. Toshkent, 1987. 222 bet
9. Ibrohim Haqqul. Kamol et kasbkim. Toshkent, 1988. 220 bet
10. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Toshkent, 2007. 11-bet. 221 bet
11. Hayitmetov A. Alisher Navoiy ijodini o'rganishning metodologik asoslari haqida // O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2001. 2-son.
12. Yo'Is'hoqov. Alisher Navoiyning ilk lirikasi. Toshkent, 1965. 260 bet
13. Maqsud Shayxzoda. Ustodning san'atxonasida. TAT. 6 tomlik. 3-tom. 320 bet
14. A.Hayitmetov. Navoiyning ijodiy metodi masalalari. Toshkent, 1963.
15. A.Hayitmetov. Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan. T., 1970.
16. A.Hayitmetov. Tabarruk izlar izidan. Toshkent, 1976. 212 bet
17. A.Hayitmetov. Navoiy dahosi. Toshkent, 1981. 224 bet
18. A.Hayitmetov. Meros va ixlos. Toshkent, 1987. 198 bet
19. Vohidov R. Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. T., 2006. 528 b
20. El desa Navoiyni. Toshkent, 1991. 170 bet
21. Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. Toshkent, 1969. 260 bet
22. Abdug'afurov A. Erk va ezgulik kuychilari. Toshkent, 1979.
23. S.G'aniyeva. Alisher Navoiy. Toshkent, 1969. 322 bet
24. N.Mallayev. Genial shoir va mutafakkir. Toshkent, 1968. 186 bet
25. Erkin Vohidov. Junun vodiysida // Alisher Navoiy. G'azallar. SHarhlar. Toshkent, 1991. 226 bet
26. Zohidov V. Ulug' shoir ijodining qalbi. Toshkent, 1970. 128 bet

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-6
I BOB. Alisher Navoiy lirik merosining o'rganilishi.	
I.1.Alisher Navoiy lirik merosining XX asrgacha bo'lgan davrda o'rganilishi.....	7-17
I.2. Shoir lirik merosining XX asrda o'rganilishi.	18-26
II. Alisher Navoiyning avtobiografik g'azallariga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar .	
II.1. Navoiyning avtobiografik g'azallarida ijtimoiy motivlar.....	27-48
II.2. Alisher Navoiyning shaxsiy hayoti bilan bog'langan avtobiografik g'azallar.....	49-57
XULOSA	58-60
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	61

Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek filologiyasi fakulteti bitiruvchisi Toshova Xurshidaning "Alisher Navoiyning avtobiografik g'azallari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

X U L O S A S I

Alisher Navoiy she'riyati, lirik merosini o'rganish va tadqiq qilish uzoq yillik tajribalar asosida amalga oshirilayotgan jarayondir. Chunki bu xayrli ishlar shoir tirikligidayoq amalga oshirila boshlangan. O'zbek adabiyotining bir necha asrlik taraqqiyotida shoirning adabiy an'analarini davom ettirgan, unga ergashib g'azallar yozgan, shoir g'azallariga naziralar bog'lagan ijodkorlar talaygina. Shu bilan birga Alisher Navoiyning lirik merosini to'plash, nashr qilish, uni mavzu va obrazlar olamiga ko'ra tahlil qilish, janrlar tabiatiga ko'ra tasniflash, qo'lyozmalardagi she'riy asarlarni bir-biriga qiyosan o'rganish adabiyotshunoslar oldidagi muhim vazifalardan bo'lib kelgan.

Bitiruvchi Toshova Xurshidaning "Alisher Navoiyning avtobiografik g'azallari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi Navoiyning hasbi hol mavzusidagi g'azallarni tahlil qilish va ma'lum ilmiy xulosalar chiqarishga bag'ishlangan. Ish kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi Alisher Navoiy lirik merosining o'tmishda, XX asrda o'rganilishi masalalariga bag'ishlangan. Unda talaba shoir lirik merosining Navoiy yashagan davrdan boshlab to bugungi kunga qadar o'rganilishi, e'tibor qaratilgan asosiy jihatlar, shoir lirikasi bo'yicha yaratilgan tadqiqotlar, ularning bir-biridan farqli tomonlari, shoir she'riyatining janr va mavzular nuqtayi nazaridan o'rganilishi kabilarga atroflicha to'xtaladi.

"Alisher Navoiy avtobiografik g'azallarining o'ziga xos xususiyatlari" deb nomlangan ikkinchi bobda shoir lirikasida mavjud bo'lgan hasbi hol xarakteridagi g'azallar tahlilga tortilgan. Xususan, "*Parim bo'lsa uchib qochsam*", "*Junun vodiysig'a moyil ko'rarmen*", "*Topmadim ahli zamon*

ichra”, “*Kimga qildim bir vafokim*”, “*Sorig’ og’rig’ bo’ldum*”, “*Sorg’oribtur lolaro’yim*” deb boshlanuvchi g’azallari tahlil qilishga harakat qilgan. Bunda talaba A.Hayitmetov, Ibrohim Haqqul, YO.Ishoqov singari navoiyshunos olimlarimizning tahlillariga, ilgari surgan ilmiy qarashlariga tayangan. .

Xulosada ish davomida ilgari surilgan fikrlar umumlashtiriladi.

Bitiruv malakaviy ishida ayrim kamchiliklar ham ko’zga tashlanadi. Masalan, ayrim tahlillarda biryoqlamalik yetakchilik qilgan. Ammo bu ishning ilmiy saviyasiga putur yetkazmaydi. Mazkur ish bitiruv malakaviy ishlarga qo’yiladigan barcha talablarga javob beradi. Shuning uchun DAK hay’atidan uni munosib baholashlarini so’rayman.

Ilmiy rahbar: f.f.n. S.Jumayeva